

**O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI
BADIY TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA PEDAGOG VA
MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**“AMALIY SAN‘AT (TURLARI BO‘YICHA)”
YO‘NALISHI**

**“AMALIY SAN‘ATNI O‘QITISH METODIKASI”
MODULNING**

O‘QUV USLUBIY MAJMUASI



Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016 yil 6 aprelidagi 137-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: **K.Gulyamov** – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Taqrizchilar: B.Baymetov - professori, pedagogika fanlari nomzodi.
 A.Sulaymonov - professori, pedagogika fanlari nomzodi.

O‘quv dasturi O‘zBA huzuridagi Markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (2023 yil 1-maydagi 2- sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	3
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.	13
III. NAZARIY MATERIALLAR	16
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	16
V. KEYSLAR BANKI.....	21
VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....	46
VII. GLOSSARIY	48
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	54

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta‘lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog va mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirish va shu orqali talabalarning badiiy estetik didini yuksaltirish kabi muhim vazifalar qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta‘lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta‘lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining V bob Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan 75-maqсад: Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari, kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti, ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, farmonlar, qarorlar hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar qo'llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta'lim va tarbiya jarayonlarini subektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo'llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o'rganilmagan. Bu holatlar oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, Amaliy bezak san'ati bo'yicha ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini oshirishdan iborat..

Modulning vazifalari:

- “Amaliy san’at (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta‘minlash;
- mutaxassislik fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;
- “Amaliy san’at (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Amaliy san’atni o‘qitish metodikasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- amaliy san’at, uning turlarini o‘qitishda badiiy tahlil qilishni;
- amaliy san’atning jamiyatda tutgan o‘rnini;
- amaliy san’atda kompozitsiya turlari va tuzish qonuniyatlarini;
- amaliy san’atda stilizatsiya qonuniyatlarini;
- amaliy san’atda badiiy bezash texnologiyalarini;
- amaliy bezak san’atida usta-shogird an’analarini;
- milliy va xorijiy ijodkorlarning ashyoda ishlash texnologiyalarini;
- amaliy san’atda ranglash va pardozlash texnologiyalarini;
- amaliy san’at asarlaridagi zamonaviy ashyolarni qo‘llash usullarini;
- amaliy bezak san’ati maktablari, ularning hususiyatlari va namoyandalarini;
- zamonaviy nutq madaniyati meyorlari, nazariy va amaliy uslublarini;
- san’at va uning mohiyati, asosiy turlarini;
- amaliy san’atning shaxs estetik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rnini ***bilishi***;
- amaliy san’atning ;
- amaliy san’atda ko‘nikma, mahorat va kuzatuvchanlik tuyg‘ularini rivojlantirish;
- amaliy san’at kompozitsiyasida shakl va hajm hosil qilish;
- naqsh chizish mahoratini oshirishda nusxa ko‘chirish;
- chizmatasvirning turlarini qo‘llash;

- amaliy san'atda jahon an'analari va maktablari usullaridan foydalanish;
- amaliy san'atda akademik maktab uslublaridan samarali foydalanish;
- amaliy san'at kompozitsiyasi qoida va qonunlarini tahlil qilish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi;
- amaliy san'atda kompozitsiya tuzilish qoidalaridan samarali foydalanish;
- amaliy san'atda ashyolar xususiyati, turli vositalaridan foydalanish;
- amaliy san'atda turli badiiy bezak texnologiyalarini qo'llash;
- amaliy san'atdagi mahalliy va horijiy ilg'or tajribalardan unumli foydalanish;
- mashhur xalq amaliy bezak san'ati ustalari uslublarini o'rganish;
- go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojeaviylik va kulgulilik kabi estetik xususiyatlarning san'atda namoyon bo'lishini baholay olish;
- amaliy bezak san'ati asarlarini tahlil etish;
- amaliy san'atda kompozitsiyaning alohida xususiyatlari va farqini tahlil qilish;
- amaliy bezak san'ati bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish;
- amaliy bezak san'atida zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olish;
- Amaliy bezak san'ati asarlarini badiiy idrok etish;
- amaliy bezak san'ati turlaridan foydalanish bo'yicha *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Amaliy san'atni o'qitish metodikasi” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, shuningdek, ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda ustaxonalar, sohaga oid muassasalar va soha mutaxassislarining ijodiy ustaxonalarida tashkil etilishi, badiiy ta'limning muhim ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejasidagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Amaliy san'atda kompozitsion yechim masalalari” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Raqamli universitet” modeli va oliy ta'lim jarayonini boshqarishning axborot tizimlari”, “Ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar badiiy ta'limning ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	Amaliy va badiiy bezak san'atini o'qitish metodikasi	2	2		
2.	Amaliy san'at turlarini o'qitishda talabalarning qobiliyatini to'g'ri baholash va yo'naltirish	4	2	2	
3.	Badiiy bezash ishlarida amaliy san'atning o'rni	4	2	2	
4.	Naqqoshlik san'ati. Naqsh va uning turlari	4		4	
5.	Naqqoshlik san'atiga xos yo'l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini chizish	4		4	
6.	Badiiy bezak san'atida ishlatiladigan asbob-uskunalar va materiallar	4		4	
7.	Rang qo'llanilishi va kompozitsiyani yakunlash bosqichlari	4		2	2
8.	O'zbek amaliy va badiiy bezak san'ati	4			4
	Jami:	30	6	18	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Amaliy va badiiy bezak san'atini o'qitish metodikasi. (2 soat)

Amaliy va badiiy bezak san'ati bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Amaliy va badiiy bezak san'ati haqida dastlabki ma'umotlar, amaliy va badiiy bezak san'ati fanining predmeti, plakat shriftini yozishni o'rganish va uni rangda bajarish, namuna asosida harflar va sonlarni yozish hamda rangda bo'yash, murakkab reklama harflari asosida to'liq alfavit va sonlarni yozish, rangda bo'yash, yozuv kompozitsiyasi — e'lon, shior, tabrik matni kabi yozuvlarni yozishni

o‘rganish, oddiy naqsh namunalarini chizish, boyash va pardozlash (1–10 gullar), hajmli buyumlar (o‘yinchoq, kubok, yodgorlik, esdalik buyumlari va h.k.), rangshunoslikka oid turli mashqlar bajarish kabi ko‘plab mavzular nazariy va amaliy jihatdan bayon qilingan.

2-mavzu. Amaliy san‘at turlarini o‘qitishda talabalarning qobiliyatini to‘g‘ri baholash va yo‘naltirish.

(2 soat)

Amaliy va badiiy bezak san‘atini o‘rganish yoshlarga atrofdagi jismlarning stillashtirgan holda, badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko‘rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish, san‘at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go‘zallikka bo‘lgan muhabbatni rivojlantirish, amaliy va badiiy bezak san‘atida kompozitsiya masalalari, naqsh turlari, badiiy naqqoshlikda zamonaviy ramzlar, o‘quv va tarbiyaviy jarayonda badiiy bezak san‘atining o‘rni, amaliy bezak san‘atida kompozitsiya, shriftlar, reklama, e‘lon, shior, tabrik matni namunalari, interer va ekstererda badiiy bezash bilan tanishtirish orqali nazariy jihatdan o‘rgatadi hamda ularning estetik didlarini o‘stirishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘rta maxsus, kasb–hunar va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo‘lishini taqazo etib, pedagoglar, olimlar, ustalar va rassomlar zimmasiga mashaqqatli va ayni paytda sharaflil va yuksak mas‘uliyat yuklaydi.

3-mavzu. Badiiy bezash ishlarida amaliy san‘atning o‘rni

(2 soat)

Amaliy san‘at keng miqyosda rivojlanayotgan xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Unda kishining haqiqiy san‘atga estetik munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalq amaliy san‘atining bu turi haykaltaroshlik, rangtasvir, me‘morlik, raqs va musiqa bilan hamoqangdir. Bezak san‘atining o‘ziga xos estetik jihatlarini tushunish uchun uning mavzui, mazmuni, asardagi tiplar, badiiy taxnika vositalari diapazonining odatdan tashqari katta miqyosini nazarda tutib qarash kerak. Bu badiiy bezak o‘ymakorligi — monumental, dastgoqli, predmetli–miqyos va turli xalqlarning milliy kiyimlari, so‘zanalar, taqinchoqlar va istirohat bog‘lari san‘ati, devorlardagi monumental dekorativ rasmlar, vitrina, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari hamda mebel buyumlaridagi o‘ymakorlik va hokazolardir.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Amaliy san'at turlarini o'qitishda talabalarning qobiliyatini to'g'ri baholash va yo'naltirish.

(2 soat)

Amaliy san'atning turlari bo'yicha talabalar qobiliyatini aniqlash, to'g'ri baholash va aniqlangan tur bo'yicha yo'naltirish mahoratini shakllantirish. Sinovdan o'tkazish, amaliy va nazariy sinov natijalarini tahlil qilish va talabalarning qobiliyatini, badiiy estetik didini aniqlash, darajalashtirish va ularga to'g'ri yo'naltirish.

2-mavzu. Badiiy bezash ishlarida amaliy san'atning o'rni.

(2 soat)

Bezak san'ati asarlari vositalarida ma'lum davr doirasida sharoitning badiiy obrazli mazmunini dinamik tarzda o'zgartira olish mumkinligi ularning o'ziga xos xususiyatidir. Dekorativ san'atning shu xususiyatiga binolar, ko'chalarning bayramona bezatilishi misol bo'ladi. Bu bezaklar o'sha joylarning odatdagi qiyofasini ma'lum vaqtgacha o'zgartirib turadi. Bezak san'atining barcha turlariga oid asarlar, shu jumladan, ularga yaqin turuvchi grafik san'at asarlari ham ma'lum darajada mana shunday rolni bajarishi mumkin. Masalan, bayramona tabriklar yoki tasvir tushirilgan vimpellar.

Har bir tarixiy davr alohida g'oyaviy va axloqiy tasavvurlarni olg'a surib, kishilar ijtimoiy hayotining alohida ideallarini ifodalalar ekan, takrorlanmas dekorativ san'atni vujudga keltirgan. Bezak san'at asarlarida inson, jamiyat va davrning xarakterli hissiyotlari to'g'risida mavjud g'oyaviy hamda axloqiy tasavvurlarni ifodalash san'atning rostgo'yligi yoki ta'sirchanligining asosiy shartidir. Mana shu tamoyilga amal qilinmasa, badiiy maqsad hamda shaklni hal qilishda yasamachilik, asarda emotsional qiyofa bo'lmasligi, formalizm vujudga keladi.

3-mavzu. Naqqoshlik san'ati. Naqsh va uning turlari.

(4 soat)

Naqqoshlikda ko'plab material va asboblari ishlatiladi. Naqsh chizish uchun oq qog'oz, yumshoq qora qalam, chizg'ich va o'chirg'ich, bo'yoq turlaridan esa guash, akvarel, moy bo'yoqlar, suv idish va ranglarni qorish uchun idishchalar zarur bo'ladi. Turli nomerlardagi mo'yqalamlar, pargor, shaffof qog'ozi, kumush va tilla hal kukuni, xoka, nina, duradgorlik yelimi, bo'r, alif, lak va hokazolar ishlatiladi. Ulardan ish jarayonida qanday foydalanish tartibi bilan tanishamiz. Naqshlarni bo'yash va ulardagi elementlarga pardo berishda bo'rsiq, suvsar va olmaxon kabi hayvonlarning mayin yungidan tayyorlangan turli kattalikdagi mo'yqalamlar

ishlatiladi. Mayda qil-qalamlarni uchi ingichkaligi sababli naqshdagi nozik joylarni ishlashda qulaylik tug'diradi. Naqqosh ustalar zarurat tug'lsa yirikroq mo'yqalamlarni iplar bilan bo'lib bog'lagan holda kichiklashtirib ishlatadilar.

4-mavzu. Naqqoshlik san'atiga xos yo'l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini chizish. (4 soat)

Boshlang'ich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish odatda talabalarda bu borada ayrim nazariy va amaliy tushunchalar, ish tajribalari xosil bo'lganidan so'ng mustaqil topshiriq sifatida berilishi mumkin. Dastlab talabalar buyum yoki yuza sirtini, uning o'ziga xos o'lchamlarini diqqat bilan ko'zdan kechirib, bo'lajak naqsh kompozitsiyasining shakl va elementlarini «hayolan» tanlab oladilar. Albatta, bu naqsh elementlari talabalar tomonidan qachonlardir o'zlashtirib olingan yoki kuzatilgan naqsh bo'laklaridan iborat bo'ladi. Bunda talabalarning tasavvurlar, ish tajribalari, fikr yuritishlari qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, shuningdek, xotiralari zahirasida qanchalik ko'p naqsh elementlari mavjud bo'lsa, ular ajoyib naqsh kompozitsiyalarini tuzishlari mumkin bo'ladi.

Kompozitsiya tarkibidagi novdaning chizilishi gul va boshqa naqsh elementlarining bir-birlari bilan yaxlit, uzviy bog'lanib ketishini ta'minlaydi. Naqsh namunasiga novda, gul va barg elementlarini joylashtirish, ya'ni ulash natijasida kompozitsiya mazmuni tugal yechimini topadi, mavjud naqsh kompozitsiyasi patnis ko'rinishidagi naqshlar turiga xos bo'lganligi sababli «Patnis islami» deb ataladi. Kompozitsiya rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo'yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o'zaro mutanosibliги hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida har bir bo'lakka ishlov berilgan holda uning nusxasi kerakli joylarga ko'chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

5-mavzu. Badiiy bezak san'atida ishlatiladigan asbob–uskunalar va materiallar (4 soat)

Badiiy bezash ishlarida tasviriy san'atning ko'p turlari, jumladan, grafika va chizmachilik mashg'ulotlarida keng foydalaniladigan «Konstruktor» va boshqa markadagi ko'plab qalamlari ishlatiladi. Bu qalamlarning qattiq, yumshoqligiga ko'ra har xil turlari qo'llaniladi. Oliy ta'lim muassasalaridagi badiiy bezash ishlarining deyarli ko'p qismi: e'lonlar, devoriy, fotogazetalar, bannerlar va

boshqalar qog'ozga ishlanadi. Badiiy bezash ishlarida qog'ozning «V», «F», «A», «O» turlari qo'llaniladi.

6-mavzu. Rang qo'llanilishi va kompozitsiyani yakunlash bosqichlari (2 soat)

Rangning psixologik vaziyatlari turli ranglar va rang birikmalarining kishilardagi hissiy holatlarga ta'sir etish qobiliyatidan kelib chiqib yaratiladi. Garchi rangni idrok qilishda kishining shaxsiy xususiyatlariga, hayotiy tajribasiga bog'liq juda ko'p sub'ektivlik mavjud bo'lsa—da, mutaxassislar rang kishiga ta'sir ko'rsatishining qator umumiy xususiyatlarini ifodalaydilar. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, xona va intererlarni jihozlash, ommaviy tadbirlar: munozara, miting, tantanali marosim va kechalar o'tkaziladigan joylarni bezash uchun nurni filtrlaydigan rangli yoritkichlar va applikatsiyalardan foydalanish kerakli kayfiyatni vujudga keltirishda katta rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Buning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, munozaralarda sariq, to'q sariq, yashil, och jigarrang yoritkichlar yordamida qo'shimcha ishonchlilik, oshkoralik vaziyati, kechalarda och tusli qizil, sariq, havo rang yoritkichlar orqali ko'tarinkilik kayfiyati, tantanali mitinglarda sariq, ko'k, to'q sariq, yashil rangli yoritkichlar bilan jiddiylik, batartiblik vaziyati vujudga keltiriladi.

KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Rang qo'llanilishi va kompozitsiyani yakunlash bosqichlari (2 soat)

Ranglardagi haddan tashqari monotonlik odamni tez zeriktiradi va charchatadi. Estetik nuqtai nazardan olganda ranglardagi to'yinganlik va yorqinlik darajasi turli variantlarda olingan taqdirda ham talablarga javob bermaydi. Bir xil ranglar charchash, xatto, to'yingan ranglarga ega bo'lgan sirtlar ham uncha nazarga tushmay qolishga olib keladi. Shunga ko'ra auditoriya va ustaxonalardagi ranglar ikki—uch xildan oshmasligi lozim. O'quv yurtidagi umumiy ranglar uyg'unligini saqlash uchun bir xil ranglarning to'yinganlik va yorqinlik darajasi bir necha variantlarda olinishi mumkin. Talabalar yoqtiradigan yorqin, to'yingan ranglarni o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladigan xonalarda qo'llash mumkin. Dam olish xonalari, vestibyul, zinapoyalar, oshxona, majlislar zali va boshqa joylarda qo'llaniladigan ranglarning yorqinligi va gammasiga qo'yiladigan qat'iy talablarga javob beradigan ranglardan foydalanish kerak. Bu joylardagi ranglarning yorqinlik jihatidan kontrast bo'lishi talabalarning binoga kirib kelishida, tanaffus paytlarida ularning kayfiyatini ko'taradi.

2-mavzu. O‘zbek amaliy va badiiy bezak san’ati (4 soat)

Mamlakatimizdagi amaliy san’at durdonalaridan, naqqoshlik san’ati na’munalari va badiiy bezak san’ati asarlarini borib ko‘rish, o‘rganish, nusxa olish va ularning badiiy tahlil qilish

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, badiiy estetik didni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan kompozitsiyaning badiiy yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (kompozitsiya yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

“SWOT-таҳлил” методи.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)

• кучли томонлари

W – (weakness)

• заиф, кучсиз томонлари

O – (opportunity)

• имкониятлари

T – (threat)

• тўсиқлар


Namuna: Rassom ijodkorlar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Rassom kim ? Badiy asar yaratuvchi.	Rassom bu tinmay izlanuvchi ijodkor inson
W	Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar.	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir
O	Rassomlar chiziqlar, shakllar, ranglar, tasviriy san’at vositalari yordamida badiy obrazli asar yarata oladigan insonlar. (ichki)	Ular tasviriy san’at vositalardan, chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan tasvir orqali o‘z g‘oyasini, fikrini bayon eta oladilar.

T	To'siqlar (tashqi)	Rassomlarga erkinlik bo'lmasa chiziqlar, shakllar, tasviriy san'at vositalari bilan o'z asarlarida tasvir orqali bayon eta olmaydilar.
----------	--------------------	--

“Baliq skeleti”

Natyurmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. 4



«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When), Qayerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday? Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash

4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish
--	--

“Insert” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- “Tasviriy san’at” bo‘yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo‘yicha o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar professor - o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib,

izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Amaliy va badiiy bezak san'atini o'qitish metodikasi. (2 soat)

Inson hayoti va faoliyati davomida zarur bo'lgan bilimlar sarhadi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig'indisini o'zlashtirish bilan chegaralanib qolishi uni ma'naviy qashshoqlikka olib keladi. Shuning uchun talabalarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirib va boyitib borishni, o'zining diqqat-e'tiborini axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o'rgatish talab etiladi. Bu vazifa talabalarning badiiy bezash ishlarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqazo etadi.

Amaliy va badiiy bezak san'ati turlari ijodiy mehnat bilan chambarchas bog'liq va shuning uchun talabalarda ishga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi, ularni ma'naviy jihatdan boyitadi. Amaliy va badiiy bezak san'ati bugungi hayotimizning turli sohalarini, har xil voqealarni to'la qamrab olishi lozim. U davlatning tashqi va ichki siyosatini, xalqning mehnatdagi yutuqlarini, mamlakat tarixi, ilmiy, badiiy hayotidagi yangiliklarni, tabiat va boshqalarni ifodalashi kerak.

Talaba kunning ancha qismini ta'lim muassasalarida o'tkazadi. O'quv yurtidagi butun muhit uni go'zallik qonunlari asosida yashashga, hayotdagi rang-barang holatlarni ko'ra bilishga o'rgatishi lozim.

Talaba o'zi ta'lim olayotgan muassasa binosiga, uning yonidagi hududga va sport maydonchalariga qarab, ulardagi go'zallikni his etishi, umuman o'quv dargohining qiyofasi unda o'zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o'ylab, chiroyli qilib bezatilgan va alohida e'tibor bilan tutiladigan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo'lka va gulzorlar, hovli, kiraverishdagi me'morial taxta, mehnat, kiyinish madaniyati va odob-axloq kategoriyalari kabi mavzulardagi stendlar, binoning joylashishi tasvirlangan sxema va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hammasida mazkur badiiy bezash uslubi ko'zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Badiiy bezak san'atining binoni bezatishdagi asosiy yo'nalishlari o'quv xonalarini, sport va majlislar zallarini, koridorlarni bezash, ko'rgazmalar tashkil etish,

o'quv muassasasi teatri uchun dekoratsiya ishlash, dekorativ-amaliy san'at buyumlari yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va hokazolardan iboratdir.

O'quv muassasasiga kiraverishda unga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, dars jadvali, talaba-yoshlarning ijodiy ishlaridan namunalari ko'zga tashlanib turishi kerak. Ular naqqoshlik, ganch va yog'och o'yakorligi, mozaika, misgarlik va hokazolar bo'yicha har xil ishlarni bajarib dekorativ-amaliy san'atning qiyinroq va murakkabroq turlarini o'zlashtirib boradilar. Turli muammolarga doir munozaralar, adabiy kechalar, bayram tadbirlarini o'tkazish, ko'rgazmalar tayyorlash, devoriy gazetalar chiqarish va badiiy bezash ishlarini amalga oshirish talaba-yoshlardan o'tkir did, ixtirochilik va bilimdonlikni talab qiladi¹.

Talaba-yoshlarga har bir ishda ijodiy qatnashish imkonini berish, ularning faoliyatini shoshilib, haddan tashqari, ortiqcha talabchanlik bilan baholamaslik, ammo ishni sifatsiz bajaraverishlariga ham yo'l qo'yimaslik, shogirdlarning taassurotini o'stirish va ularga o'z taassurotlarini ifodalashning qulay shakllarini topishda ko'maklashish lozim. Mana shular mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'z kuchiga ishonchni tarbiyalashning muhim omillaridir. Bu ham asosiy vazifalarimizdan biridir. Binobarin, yoshlarning ta'lim-tarbiyaviy ishlar jarayonida faol qatnashuvi hozirgi hamma pedagogik yo'nalishlarning bosh mazmunidir.

Amaliy va badiiy bezash ishlari talaba-yoshlar bilan olib boriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy ishning eng muhim maqsadlarini amalga oshirishga, ya'ni o'g'il va qizlarda dunyoqarash asoslarini, ijtimoiy faollikni, ongni, intizomni, madaniy xulq-atvorni tarkib toptirishga, xuquqiy bilimlarni, mehnatga, ijtimoiy mulkka munosabatni shakllantirishga, politexnik va estetik bilimlar doirasini kengaytirishga, badiiy qobiliyatni o'stirishga xizmat qilish kerak.

Dekorativ san'at vositalari orqali mana ma'naviy-ma'rifiy kechalarning har biri uchun kerakli muhit yaratilishi kecha mavzusi, uning mazmuni murakkabligidan qat'iy nazar, talaba uni chuqur his etishida katta yordam beradi. Har qanday metodik vazifa singari badiiy bezash ishlari ham professional aniqlikka va ijodiy yondashishni talab etadi. Professional o'qituvchi talabaning badiiy izlanishlarini to'g'ri va konstruktiv yo'nalishga solib, ijodiy yondashish, yetuk badiiy xulosalar chiqarishga olib boradi.

Tayanch tusunchalar: ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya, xulq-atvor, kasb-hunar, ijod, ijodiy, professional, dekorativ, konstruktiv, san'at, muassasa, bezak.

MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Amaliy va badiiy bezak san'ati fani nimani o'rganadi?
2. Amaliy va badiiy bezak san'ati fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

¹Қодирхўжаев П. Бадий безак санъати. -Т.: Иқтисод-Молия, 2007, -108 б.

3. O'quv muassasasi rejasi bilan tanishish.
4. Amaliy va badiiy bezak san'ati turlari bilan tanishish.
5. Ta'lim olayotgan muassasa binosi, uning yonidagi hudud va sport maydonchalari hamda ekin maydonlari va gulzorlarni o'rganish.

2-mavzu. Amaliy san'at turlarini o'qitishda talabalarning qobiliyatini to'g'ri baholash va yo'naltirish (2 soat)

Amaliy san'at xalq hunarmandchiligining asosini tashkil etib kelgan. Zero, o'zbek xalq hunarmandchiligining tarixiy ildizlari amaliy san'at asosida taraqqiy etib juda qadimiy, mumtoz hamda ota-bobolarimizning asriy tajribalarga tayanib o'zining serunum, serjilo, shu bilan bir vaqtda har bir insonni hayratga solib kelgan madaniy merosimizni o'z ichiga oladi. Odamzotning yaxshi yashashga, madaniyatga bo'lgan ilk qadami ibtidoiy davrdan boshlanganligini tarixiy manbaalardan bizgacha yetib kelgan ma'lumotlardan bilib olishimiz mumkin.

Chunki, har bir mavzuda Vatanimiz madaniyati va san'ati durdonalarini o'rganish bilan birga o'tmish ajdodlarga bo'lgan mehr-muhabbat kuchayib, uni kelajak avlodga o'rgatish xissi oshib boradi. Shu bilan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviyatimizdan boxabar bo'lib boramiz. Iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi esa insonning aqliy kamoli va ma'naviy rivoji uchun kuchli turtki berdi. Bu davrga kelib suv havzalari bo'ylarida o'z xususiyati jihatidan qishloq jamoalariga o'xshash jamoa manzillari ko'paya bordi. Xorazm va Buxoro havzalarida esa ovchilarning o'ziga xos madaniyati shakllandi. Kaltaminor madaniyati miloddan avvalgi VII-III-minginchilik yillarga neolitning so'nggi va bronza asriga to'g'ri keladi. Bu madaniyat Jonbosqal'a balandliklari yodgorliklarini o'z ichiga olib katta hududni tashkil qiladi. Bu yerda chayla tipidagi turar joy topilgan. Bu turar joyda bir qancha oila guruhi yashagan. Kaltaminor madaniyatida kulolchilik rivojlangan. Ularning shakllari rang- barang.

Neolit davrida yangi usullar — silliqlash, parmalash, arralash usullarini ixtiro etdilar. Toshdan boltalar yasalgan, kulolchilikda ayollar dastlabki yumaloq idishlar yasaganlar, keyin bu ishni erkaklar bajarganlar. Jundan ip yigirib matolar to'qiganlar, yopinchiqlar o'rniga kiyim-kechaklar to'qiganlar. Dehqonchilik madaniyati vujudga kelgan. Miloddan avvalgi V-III-ming yilliklarda Xorazm va Buxoro vohasi hududlarida Kaltaminor madaniyati vujudga kelgan. U yerdan topilgan idishlarni tagi yumaloq, sirti chizma naqshlar bilan bezatilgan.

Turli xil sopol idishlar — ko'za, kosa va cho'michga o'xshash idishlarning yuzasiga turlicha yo'nalgan siniq chiziqlar naqsh hosil qilish vositasi sifatida keng ishlatilgan. Bu madaniyatga oid sopol buyumlar yuzasi o'yma va chizma naqshlar

bilan bezatilgan. Turmush, tirikchilik hamda uy- ruzg'or taqozosi talabalarini bilan vujudga kelgan buyumlar, kundalik zarurat uchun kerakli bo'lgan asbob-anjoblar yasash hamda ularni har xil ko'rinish va shakllarda ijod etish har bir davrning majburiyatiga aylanib qolgan. Bu buyumlar turmushda foydalanishga qulay, sodda, shu bilan bir qatorda katta kuch talab qilmay yasash mumkin bo'lgan va yillar o'tishi bilan ularning zamon talabalariga moslanishi, yangicha nusxa va ko'rinishlarda ijod etilishi o'z davrining mohir ustalaridan ijodiy izlanish va safarbarlik talab etib kelgan.

Madaniy merosimiz hisoblanmish mahobatli me'moriy obidalar, noyob va go'zallikni o'zida tarannum etgan zebu-ziynatlar, har xil ro'zg'or anjonlari, ip va ipakdan tikilgan matolar, loy va ganchdan yasalgan sopol hamda chinni idishlar, xum va xumdonlar, kulolchilik san'atiga mansub bo'lgan buyumlar barchasi xalqimizning moddiy hamda madaniy merosi bo'lib kelmoqda. Shu boisdagi xalq ustalari yaratgan noyob asarlarga e'tibor yanada kuchaymoqda. Usto bobokalonlarimizning hayotiy va ijodiy yo'lini o'rganish, ularning sermahsul an'alarini bilish, ular yaratgan uslub va yo'llarni yanada takomillashtirish bugungi davr talabi. Qadimshunos va tarixchi olimlarning tadqiqotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston hududida qadimdan har vohaning amaliy hunarmandchiligi markazlari vujudga kelgan va asrlar davomida shakllanib borgan.

3-mavzu. Badiiy bezash ishlarida amaliy san'atning o'rni (2 soat)

Amaliy san'at keng miqyosda rivojlanayotgan xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Unda kishining haqiqiy san'atga estetik munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq amaliy san'atining bu turi haykaltaroshlik, rangtasvir, me'morlik, raqs va musiqa bilan hamoqangdir.

Bezash san'atining o'ziga xos estetik jihatlari tushunish uchun uning mavzui, mazmuni, asardagi tiplar, badiiy taxnika vositalari diapazonining odatdan tashqari katta miqyosini nazarda tutib qarash kerak. Bu badiiy bezash o'ymakorligi — monumental, dastgoqli, predmetli-miqyos va turli xalqlarning milliy kiyimlari, so'zanalar, taqinchoqlar va istirohat bog'lari san'ati, devorlardagi monumental dekorativ rasmlar, vitrina, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari hamda mebel buyumlaridagi o'ymakorlik va hokazolardir. Shakllari bir-biriga o'xshagan bu asarlarni o'zaro birlashtirib turgan jihat ularning asosiy vazifasi — insonni qurshab turgan muhitni estetik bezashdan iboratligidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, dekorativ san'at turlari rang-barang bo'lsa ham, ularning ko'pchiligi amaliy-foydali ob'ektlarga: liboslar, mebel, o'yinchoqlar, vitrinalar, binolar va hokazolarga badiiy ishlov berish jihati bilan o'zaro bog'lanadi. Mana shu ma'noda dekorativ-amaliy san'at deyiladi. Biroq bezash san'atiga, yuqorida

aytganimizdek, amaliy jiqtadan bevosita foydasi sezilmaydigan asarlar ham qo‘shiladi. Masalan, zargarlik buyumlari, turli taqinchoqlar, o‘ymakorlik buyumlari va boshqalar. Bularning hammasi rassomlik yoki haykaltaroshlikdan farqli o‘laroq kundalik konkret muhitda, o‘zlarining xususiyatlariga ko‘ra konkret holatda foydalanilsagina estetik ma‘no kasb etadi.

Inson yashayotgan va harakat qilayotgan muhitning nafasat boyligi ana shu muhitga olib kirilgan zeb-ziynat buyumlarining soni bilangina belgilanmaydi. Muhimi shundaki, bu zeb-ziynat elementlari mazkur muhitning hayotiy sharoitiga moslashib, uning ijtimoiy mazmuniga, odamlarning amaliy va ma‘naviy ehtiyojlari vujudga keltirgan talablarga nechog‘liq javob berishiga qarab baholanadi. Nafosat elementlari muhitni shunchaki bezabgina qolmasdan, balki uning badiiy obrazli mazmunini kuchaytirib, oshirib, rivojlantirib ham ko‘rsatadi. Dekorativ san‘at mana shu vazifasini san‘atning boshqa turlari — me‘morlik, rassomlik, haykaltaroshlik bilan birgalikda bajarisa, uning qimmatini yanada ortadi.

Bezak san‘ati asarlari vositalarida ma‘lum davr doirasida sharoitning badiiy obrazli mazmunini dinamik tarzda o‘zgartira olish mumkinligi ularning o‘ziga xos xususiyatidir. Dekorativ san‘atning shu xususiyatiga binolar, ko‘chalarning bayramona bezatilishi misol bo‘ladi. Bu bezaklar o‘sha joylarning odatdagi qiyofasini ma‘lum vaqtgacha o‘zgartirib turadi. Bezak san‘atining barcha turlariga oid asarlar, shu jumladan, ularga yaqin turuvchi grafik san‘at asarlari ham ma‘lum darajada mana shunday rolni bajarishi mumkin. Masalan, bayramona tabriklar yoki tasvir tushirilgan vimpellar.

Har bir tarixiy davr alohida g‘oyaviy va axloqiy tasavvurlarni olg‘a surib, kishilar ijtimoiy hayotining alohida ideallarini ifodalay ekan, takrorlanmas dekorativ san‘atni vujudga keltirgan. Bezak san‘at asarlarida inson, jamiyat va davrning xarakterli hissiyotlari to‘g‘risida mavjud g‘oyaviy hamda axloqiy tasavvurlarni ifodalash san‘atning rostgo‘yiligi yoki ta‘sirchanligining asosiy shartidir. Mana shu tamoyilga amal qilinmasa, badiiy maqsad hamda shaklni hal qilishda yasamachilik, asarda emotsional qiyofa bo‘lmasligi, formalizm vujudga keladi.

Bezak san‘atning ta‘sirli chiqishi uchun tasvirdagi realizm birdan-bir shart emas. Bezak san‘at asarlariga qo‘yiladigan talablar talaygina. Shaklni ifodalashda ishlatilayotgan materiallarning, ko‘p hollarda esa usullarning o‘ziga xos jihatlari (o‘ymakorlik, to‘qimachilik buyumlari va boshqalar), o‘ziga xos tomonlari yaqqol ifodalanishi talab etiladi. Bezak san‘atida umuman materiallar, ulardagi xususiy jiloning go‘zallik sifatleri ayniqsa muhim, ayrim hollarda yetakchi o‘rin tutadi. Bu holat bezak asarlar shakllarining o‘ziga xos jihati bo‘lib, u asarlar mazmuni umumlashtirilganligi va mavhumligining natijasidir. Ularni ko‘pincha so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Biroq bu materialning ko‘rki bezak san‘at asarlari mazmunidagi kamchilikni to‘ldirish, uni «bo‘yab ko‘rsatish» kerak, degani emas. Ijodiy

vazifalarni bunday tushunilsa, har doim asarlarning kompozitsiyasida formalizm, mazmunan qashshoqlikka yo‘l qo‘yiladi.

Bezak san'atida qo‘llanadigan materiallarning estetik jihatdan eng kerakli sifatlari — yorqinligi, rangi, fakturasi, hajmi, vazni yoki pishiqligi sanaladi. Bular yaratilayotgan shakllarning aniqlik darajasi, umumiy hajmning mutanosibligi va boshqalarda ko‘rinadi. Materiallarning mana shu sifatlarini nazarda tutib to‘g‘ri tanlanishi asar shakli va qiyofasini yaratayotganda bu sifatlardan to‘g‘ri foydalanish mazkur asar beradigan taassurotlarning (masalan, bayram, sport o‘yinlari, tantanalar va sh.k. ruhini) yorqinligini ta'minlaydi.

Intererini badiiy bezashda dekorativ-amaliy san'atning yog‘och va ganch o‘ymakorligi, naqqoshlik, dekorativ haykaltaroshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshqa turlaridan foydalaniladi. Badiiy bezash ishlarida amaliy bezak san'atining ana shu turlarini qo‘llashdan maqsad ta'lim va tarbiya maskani bo‘lmish o‘quv yurti intererining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘laroq yoritishdan, yoshlarda san'atga qiziqish uyg‘otishdan va amaliy bezak san'at sirlarinidan voqif bo‘lishlari va bu san'atga yaqinroq bo‘lishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Afsuski, ba'zi o‘quv yurtlarining intererini badiiy bezashda g‘oyat jiddiy nuqsonlar va kamchiliklarga yo‘l qo‘yiladi. Amaliy bezak san'atining sifatsiz va saviyasiz namunalari, tasviriy san'atning boshqa turlariga bevosita bog‘lanmagan ayrim stendlar, devoriy gazetalar, chaqiriqlar, e‘lonlar, portretlar intererining ko‘rinishini buzib turganini kuzatish mumkin.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Naqqoshlik san’ati. Naqsh va uning turlari.

(2 soat)

Orta Osiyo san'ati qadimdan mashhurdir. Naqqosh ustaning chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qog‘oz betini to‘ldirish yoki bo‘yash, o‘yma yuzini o‘yish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalarga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda o‘ymakor ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas'uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda tuziladigan bo‘lsa, u holda xoh bo‘yashda bo‘lsin, xoh o‘yishda bo‘lsin yoki pardoz berishda bo‘lsin har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko‘ngildagidek go‘zal va jozibador chiqmaydi.

O‘tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo‘qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar har bir tomoshabinni hayratga solib kelmoqda. Xattoki chet ellardan tashrif buyurgan sayohatchilar ham mamlakatimizdagi qadimiy yodgorliklarni, badiiy did bilan

ishlangan naqshlarini ko'rib lol qolmoqdalar. Buxorodagi Ulug'bek madrasasi, YuNESKO muhofasidagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Kalon minorasi, Samarqanddagi Shohi-Zinda maqbarasi, Go'ri Amir maqbarasi, Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari va boshqalar Sharqning nodir go'zalligi, soddaligi hamda naqsh motivlarining ulug'vorligi bilan kishilarni sehrlab kelmoqda.

Yuzlab, minglab xalq me'morlarining qovargan qo'llari bilan yaratilgan yodgorliklardagi jonli naqshlar xuddi tabiatning go'zallik olamini kuylayotganday tuyuladi va kishilar ruhiyatiga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Chunonchi, Samarqanddagi asrlar davomida musulmon sharqida dong taratgan oliy bilim maskani Ulug'bek madrasasini tomosha qilar ekanmiz, uning ta'lim-tarbiya maqsadida ko'zlab bunyod qilganligini naqqoshlar bezagi orqali sezish oson. Madrasaning bezagidagi bir birini kesib o'tgan behisob chiziqlardan ko'p burchakli va ko'p qirrali yulduzlardan tashkil topgan naqshlar xuddi koinotdagi charaqlab turgan yulduzlarni tarannum aylagandek asrlar osha hikoya qilib turganday tuyuladi. Ana shu bir birini kesib o'tgan behisob chiziqlar, har xil burchakli va qirrali yulduzlardan tashkil topgan geometrik naqshlarni girih deb yuritiladi. Xo'sh, girih nima o'zi? U qanday ma'noni anglatadi?

Girih — forscha chigal, tugun degan ma'noni anglatib, handasiy naqshlar turiga kiruvchi murakkab naqsh demakdir. Geometrik naqsh muayyan taqsimlarga ega bo'ladi. Har bir taqsim o'z tuzilishiga ega. Girih O'rta Osiyoda va Yaqin Sharqda keng tarqalgan naqsh bo'lib, XII-XVI-asrlarda ayniqsa O'rta Osiyoda juda keng taraqqiy qilgan. Pokiston, Turkiya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. Dunyoda girihni eng ko'p tarqalgan joyi O'rta Osiyodir. O'rta Osiyoda girihlarning juda ko'p turi mavjud. Bu girihlarni arxitektura minoralaridan tortib kitob varag'igacha bezatilganining guvohi bo'lamiz. Albatta biz tarixga nazar tashlar ekanmiz o'sha zamon uchun girihni chizmachilik asboblari, matematik formulalar asosida ishlanishi bu katta ilmiy kashfiyot edi. Bu girihni ishlagan ustalar matematika fanini egallagan kishilar bo'lganlar.

Arxitektura yodgorliklaridagi geometrik naqshlar shunday aniqlikda ishlanganki, kishini lol qoldiradi. Olimlarimiz ana shu girih ishlash sirlarini topish maqsadida ko'p izlanishlar qildilar. Lekin bu jumboqlardan to'la ma'lumotlar ololmadilar. Chunki o'sha vaqtdagi ustalar bu geometrik naqshni qurishni sir deb bilib qog'ozda yoki tushuntirib qoldirmaganlar. Shuning uchun ham otadan-bolaga o'tib unutilib yuborilgan. Ana shu sabablarga ko'ra hozirgi zamonamizda ham ko'pgina ustalarimiz girihni yechimini topishga qiynaladilar.

Sharqning mashhur olimlaridan Abdulvafo al Buzjoniy (940—998) o'zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar yechimi to'g'risida yozib qoldirgan. Bularda girihni ba'zi oson yo'llarini tushuntirib o'tgan. Masalan, uning kitoblaridan birida qurilish va geometrik naqsh yechimi to'g'risida yozilgan. Bu kitob hozir

Parijdagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Abdulvafo al Buzjoniy o'zining asarlarida girihni tayyorlash usullarini ko'rsatib o'tsada, bizga girih yechimi to'g'risidagi ma'lumotlar berilmagan².

U o'zining kitobida kvadratni uchga, beshga bo'lishning eng sodda va oson yo'llarini keltiradiki, bu o'sha davr uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik edi. Murakkabligidanmi yoki yasash qonun-qoidalarining asta-sekin unutib ketganligidanmi, xullas biz uchun noma'lum. XVII-asrga kelib, girih san'ati juda kam ishlatiladigan bo'ldi. Girih chizadigan ustalar nihoyatda kam qolgan. Girih chizish murakkab bo'lgani uchun hamma ustalar chiza olmaganlar. O'sha davrlarda girih naqshini yaxshi bilgan ustalar yetuk ustalar bo'lib hisoblanganlar. Shunday ustalardan biri Usta Shirin Murodov bo'lgan. U yangi girihlarni osonlik bilan chiza olgan hamda o'z o'rnida ustalik bilan qo'llay olgan. U o'z davrida girihni piri hisoblangan, uni girihkor usta deb hisoblaganlar. Shuning uchun girih chiza olmagan ustalarni yetuk usta deyilmagan.

Bunday olimlardan 3.Bositxonovni keltirishimiz mumkin. 3.Bositxonov 300 ga yaqin ishlagan yangi girih naqshlari bilan mamlakatimizda mushhurdir. Hozirda har bir binoni bezashda geometrik naqshlar qo'llab kelmoqdalar. Girih naqshining o'z qonun-qoidalari bor. Shuning uchun ham biz ularga girih naqsh yasash geometriyasini qonun-qoidalarini chuqur o'rgatmog'imiz lozim.

Gulli girih — o'simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topgan. Uning elementiga geometrik va o'simliksimon naqshlar kiradi.

Ramziy naqshlar esa kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi. Ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g'uncha, kabutar, tovus va boshqalarning tuzilishini, o'sish qonun-qoidalari, ko'rinishini sinchiklab o'rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash

²Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. -Т.: Меҳнат, 1991.



Madoxil — (arabcha — ostona, kirish, eshik) chapurost takrorlanuvchi islami naqsh turi, u kompozitsiyada chiqish nuqtasi, ya'ni manbai, ildizi, asosi yoki o'zagi bo'lib hisoblanadi. Madoxili ko'rinishi jihatidan xilma xil bo'lib, g'uncha, lola, gul, uch barg va boshqa shakllardan iborat. Ana shu shakllarning orasiga naqqoshlar har xil gullar kiritib o'ziga xos nom qo'yganlar. Masalan: madoxili lola — g'uncha, lola shakliga yaqin qilib ishlangan madoxili naqsh turi; qo'sh madoxili — lola, g'uncha, gul va boshqa shakldagi madoxilining biri yuqoriga, biri pastga qaratib chiqilgan nusxasi; madoxili islami — naqshning taqsimini, asosini madoxili shakli egallovchi islami naqsh turi. Madoxili naqshlari arxitekturada, yog'och, ganch, tosh, mis o'ymakorligida, naqqoshlikda, kashtado'zlikda va boshqalarda keng tarqalgan. Madoxili turlari borgan sari ko'payib bormoqda va zamonaviy binolarning uy-ro'zg'or buyumlarini bezashda keng qo'llanilyapti.

Turunj — arabcha «limon» degan ma'noni bildiradi. Ruscha medalon, naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. O'rta Osiyoda o'ziga xos ko'rinishga va mazmunga ega bo'lib, qadimdan ishlatilib kelinadi. Turunj naqshning ko'rinishi, limon shaklida bo'lgani uchun uni shunday deb yuritiladi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan. Uning hozirda doira, 5-10 raxli yulduz, oval, romb, ellips shakllari bor. Turunj nusxasi 4, 8 yoki 16 ga bo'linadi.

Naqqoshlar ko'pincha to'rtburchakli kompozitsiya chetiga oddiy naqsh, ya'ni ruta ishlab o'rtasiga turunj ishlaydilar. Turunj ko'pincha devor o'rtasiga, shift

markaziga, kashta, gilam markazlariga bajariladi. Usta turunj ulgisini tayyorlashda qog'ozni 4, 8 yoki 16 ga buklab bir bo'lagiga nusxa chizadi. Shu naqsh chiziqlarini ignada teshib so'ngra qog'oz yoyilsa qolgan bo'laklariga ham nusxaning takrori hosil bo'ladi. Tayyorlangan turunj nusxasini kerakli yuzaga tushuriladi.

Anorgul — naqqoshchilikda, kulolchilikda, misgarlik, kashtachilik va shu singari turlarida ishlatiladigan o'simliksimon naqshdir. Anorgul naqshi qadimdan ishlatilib kelinayotgan naqsh turi bo'lib, ko'pincha Farg'ona naqshlarida ayniqsa ko'p uchraydi. Bu naqsh turi hayotdagi to'qchilik va to'kin-sochinlik, serfarzanbilik ramzi sifatida ifodalangan. Anorgul naqsh kompozitsiyasida anorni ikki xil, ya'ni naturalistik, bunda tabiatda qanday bo'lsa shunday tasvirlaydilar, gohida stillashtirilgan naqsh uslubida tasvirlanadi. Anor tasvirlangan bu naqshda anorning ko'pincha ichki qismini ham ko'rsatib tasvirlaydilar.

O'simliksimon naqshlari esa tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g'uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan.

Islimiy — o'simliksimon naqshi amaliy san'atning deyarli barcha turlarida juda keng tarqalgan. Islimiy klassik naqsh turi bo'lib, barg, gul, kurtak, tanob va boshqalardan tashkil topgan bir-biriga ulanib takrorlanishdan hosil bo'ladigan naqsh.



2-mavzu. Amaliy san'at turlarini o'qitishda talabalarning qobiliyatini to'g'ri baholash va yo'naltirish

(2 soat)

Inson hayoti va faoliyati davomida zarur bo'lgan bilimlar sarhadi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig'indisini o'zlashtirish bilan chegaralanib qolishi uni ma'naviy qashshoqlikka olib keladi. Shuning uchun talabalarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirib va boyitib borishni, o'zining diqqat-e'tiborini axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o'rgatish talab etiladi.

Bu vazifa talabalarning badiiy bezash ishlarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqazo etadi.

Amaliy va badiiy bezak san'ati turlari ijodiy mehnat bilan chambarchas bog'liq va shuning uchun talabalarda ishga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi, ularni ma'naviy jihatdan boyitadi. Amaliy va badiiy bezak san'ati bugungi hayotimizning turli sohalarini, har xil voqealarni to'la qamrab olishi lozim. U davlatning tashqi va ichki siyosatini, xalqning mehnatdagi yutuqlarini, mamlakat tarixi, ilmiy, badiiy hayotidagi yangiliklarni, tabiat va boshqalarni ifodalashi kerak.

Talaba kunning ancha qismini ta'lim muassasalarida o'tkazadi. O'quv yurtidagi butun muhit uni go'zallik qonunlari asosida yashashga, hayotdagi rang-barang holatlarni ko'ra bilishga o'rgatishi lozim.

Talaba o'zi ta'lim olayotgan muassasa binosiga, uning yonidagi hududga va sport maydonchalariga qarab, ulardagi go'zallikni his etishi, umuman o'quv dargohining qiyofasi unda o'zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o'ylab, chiroyli qilib bezatilgan va alohida e'tibor bilan tutiladigan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo'lka va gulzorlar, hovli, kiraverishdagi me'morial taxta, mehnat, kiyinish madaniyati va odob-axloq kategoriyalari kabi mavzulardagi stendlar, binoning joylashishi tasvirlangan sxema va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hammasida mazkur badiiy bezash uslubi ko'zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Badiiy bezak san'atining binoni bezatishdagi asosiy yo'nalishlari o'quv xonalarini, sport va majlislar zallarini, koridorlarni bezash, ko'rgazmalar tashkil etish,

o'quv muassasasi teatri uchun dekoratsiya ishlash, dekorativ-amaliy san'at buyumlari yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va hokazolardan iboratdir.

O'quv muassasasiga kiraverishda unga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, dars jadvali, talaba-yoshlarning ijodiy ishlaridan namunalar ko'zga tashlanib turishi kerak. Ular naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, mozaika, misgarlik va hokazolar bo'yicha har xil ishlarni bajarib dekorativ-amaliy san'atning qiyinroq va murakkabroq turlarini o'zlashtirib boradilar. Turli muammolarga doir munozaralar, adabiy kechalar, bayram tadbirlarini o'tkazish, ko'rgazmalar tayyorlash, devoriy gazetalar chiqarish va badiiy bezash ishlarini amalga oshirish talaba-yoshlardan o'tkir did, ixtirochilik va bilimdonlikni talab qiladi³.

Talaba-yoshlarga har bir ishda ijodiy qatnashish imkonini berish, ularning faoliyatini shoshilib, haddan tashqari, ortiqcha talabchanlik bilan baholamaslik,

³Қодирхўжаев П. Бадий безак санъати. -Т.: Иқтисод-Молия, 2007, -108 б.

ammo ishni sifatsiz bajaraverishlariga ham yo‘l qo‘ymaslik, shogirdlarning taassurotini o‘stirish va ularga o‘z taassurotlarini ifodalashning qulay shakllarini topishda ko‘maklashish lozim. Mana shular mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o‘z kuchiga ishonchni tarbiyalashning muhim omillaridir. Bu ham asosiy vazifalarimizdan biridir. Binobarin, yoshlarning ta'lim-tarbiyaviy ishlar jarayonida faol qatnashuvi hozirgi hamma pedagogik yo‘nalishlarning bosh mazmunidir.

Amaliy va badiiy bezash ishlari talaba-yoshlar bilan olib boriladigan g‘oyaviy-tarbiyaviy ishning eng muhim maqsadlarini amalga oshrishga, ya'ni o‘g‘il va qizlarda dunyoqarash asoslarini, ijtimoiy faollikni, ongni, intizomni, madaniy xulq-atvorni tarkib toptirishga, xuquqiy bilimlarni, mehnatga, ijtimoiy mulkka munosabatni shakllantirishga, politexnik va estetik bilimlar doirasini kengaytirishga, badiiy qobiliyatni o‘stirishga xizmat qilish kerak.

Dekorativ san'at vositalari orqali mana ma'naviy-ma'rifiy kechalarning har biri uchun kerakli muhit yaratilishi kecha mavzusi, uning mazmuni murakkabligidan qat'iy nazar, talaba uni chuqur his etishida katta yordam beradi. Har qanday metodik vazifa singari badiiy bezash ishlari ham professional aniqlikka va ijodiy yondashishni talab etadi. Professional o‘qituvchi talabani badiiy izlanishlarini to‘qri va konstruktiv yo‘nalishga solib, ijodiy yondashish, yetuk badiiy xulosalar chiqarishga olib boradi.

Tayanch tusunchalar: ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya, xulq-atvor, kasb-hunar, ijod, ijodiy, professional, dekorativ, konstruktiv, san'at, muassasa, bezak.

3-mavzu. Badiiy bezash ishlarida amaliy san'atning o'rni (2 soat)

Amaliy san'at keng miqyosda rivojlanayotgan xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Unda kishining haqiqiy san'atga estetik munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq amaliy san'atining bu turi haykaltaroshlik, rangtasvir, me'morlik, raqs va musiqa bilan hamoqangdir.

Bezak san'atining o'ziga xos estetik jihatlarini tushunish uchun uning mavzui, mazmuni, asardagi tiplar, badiiy taxnika vositalari diapazonining odatdan tashqari katta miqyosini nazarda tutib qarash kerak. Bu badiiy bezak o'ymakorligi — monumental, dastgoqli, predmetli-miqyos va turli xalqlarning milliy kiyimlari, so'zanalar, taqinchoqlar va istirohat bog'lari san'ati, devorlardagi monumental dekorativ rasmlar, vitrina, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari hamda mebel buyumlaridagi o'ymakorlik va hokazolardir. Shakllari bir-biriga o'xshamagan bu asarlarni o'zaro biriktirib turgan jihat ularning asosiy vazifasi — insonni qurshab turgan muhitni estetik bezashdan iboratligidadir.

Shuni ta'kidlash kerakki, dekorativ san'at turlari rang-barang bo'lsa ham, ularning ko'pchiligi amaliy-foydali ob'ektlarga: liboslar, mebel, o'yinchoqlar, vitrinalar, binolar va hokazolarga badiiy ishlov berish jihati bilan o'zaro bog'lanadi. Mana shu ma'noda dekorativ-amaliy san'at deyiladi. Biroq bezak san'atiga, yuqorida aytganimizdek, amaliy jihatdan bevosita foydasi sezilmaydigan asarlar ham qo'shiladi. Masalan, zargarlik buyumlari, turli taqinchoqlar, o'ymakorlik buyumlari va boshqalar. Bularning hammasi rassomlik yoki haykaltaroshlikdan farqli o'laroq kundalik konkret muhitda, o'zlarining xususiyatlariga ko'ra konkret holatda foydalanilsagina estetik ma'no kasb etadi.

Inson yashayotgan va harakat qilayotgan muhitning nafosat boyligi ana shu muhitga olib kirilgan zeb-ziynat buyumlarining soni bilangina belgilanmaydi. Muhimi shundaki, bu zeb-ziynat elementlari mazkur muhitning hayotiy sharoitiga moslashib, uning ijtimoiy mazmuniga, odamlarning amaliy va ma'naviy ehtiyojlari vujudga keltirgan talablarga nechog'liq javob berishiga qarab baholanadi. Nafosat elementlari muhitni shunchaki bezabgina qolmasdan, balki uning badiiy obrazli mazmunini kuchaytirib, oshirib, rivojlantirib ham ko'rsatadi. Dekorativ san'at mana shu vazifasini san'atning boshqa turlari — me'morlik, rassomlik, haykaltaroshlik bilan birgalikda bajarsa, uning qimmatini yanada ortadi.

Bezak san'ati asarlari vositalarida ma'lum davr doirasida sharoitning badiiy obrazli mazmunini dinamik tarzda o'zgartira olish mumkinligi ularning o'ziga xos xususiyatidir. Dekorativ san'atning shu xususiyatiga binolar, ko'chalarning bayramona bezatilishi misol bo'ladi. Bu bezaklar o'sha joylarning odatdagi qiyofasini ma'lum vaqtgacha o'zgartirib turadi. Bezak san'atining barcha turlariga

oid asarlar, shu jumladan, ularga yaqin turuvchi grafik san'at asarlari ham ma'lum darajada mana shunday rolni bajarishi mumkin. Masalan, bayramona tabriklar yoki tasvir tushirilgan vimpellar.

Har bir tarixiy davr alohida g'oyaviy va axloqiy tasavvurlarni olg'a surib, kishilar ijtimoiy hayotining alohida ideallarini ifodalay ekan, takrorlanmas dekorativ san'atni vujudga keltirgan. Bezak san'at asarlarida inson, jamiyat va davrning xarakterli hissiyotlari to'g'risida mavjud g'oyaviy hamda axloqiy tasavvurlarni ifodalash san'atning rostgo'yligi yoki ta'sirchanligining asosiy shartidir. Mana shu tamoyilga amal qilinmasa, badiiy maqsad hamda shaklni hal qilishda yasamachilik, asarda emotsional qiyofa bo'lmasligi, formalizm vujudga keladi.

Bezak san'atning ta'sirli chiqishi uchun tasvirdagi realizm birdan-bir shart emas. Bezak san'at asarlariga qo'yiladigan talablar talaygina. Shaklni ifodalashda ishlatilayotgan materiallarning, ko'p hollarda esa usullarning o'ziga xos jihatlari (o'ymakorlik, to'qimachilik buyumlari va boshqalar), o'ziga xos tomonlari yaqqol ifodalanishi talab etiladi. Bezak san'atida umuman materiallar, ulardagi xususiy jiloning go'zallik sifatleri ayniqsa muhim, ayrim hollarda yetakchi o'rin tutadi. Bu holat bezak asarlar shakllarining o'ziga xos jihati bo'lib, u asarlar mazmuni umumlashtirilganligi va mavhumligining natijasidir. Ularni ko'pincha so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Biroq bu materialning ko'rki bezak san'at asarlari mazmunidagi kamchilikni to'ldirish, uni «bo'yab ko'rsatish» kerak, degani emas. Ijodiy vazifalarni bunday tushunilsa, har doim asarlarning kompozitsiyasida formalizm, mazmunan qashshoqlikka yo'l qo'yiladi.

Bezak san'atida qo'llanadigan materiallarning estetik jihatdan eng kerakli sifatleri — yorqinligi, rangi, fakturasi, hajmi, vazni yoki pishiqligi sanaladi. Bular yaratilayotgan shakllarning aniqlik darajasi, umumiy hajmning mutanosibligi va boshqalarda ko'rinadi. Materiallarning mana shu sifatlerini nazarda tutib to'g'ri tanlanishi asar shakli va qiyofasini yaratayotganda bu sifatlardan to'g'ri foydalanish mazkur asar beradigan taassurotlarning (masalan, bayram, sport o'yinlari, tantanalar va sh.k. ruhini) yorqinligini ta'minlaydi.

Intererini badiiy bezashda dekorativ-amaliy san'atning yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, dekorativ haykaltaroshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshqa turlaridan foydalaniladi. Badiiy bezash ishlarida amaliy bezak san'atining ana shu turlarini qo'llashdan maqsad ta'lim va tarbiya maskani bo'lmish o'quv yurti intererining o'ziga xos xususiyatlerini to'laroq yoritishdan, yoshlarda san'atga qiziqish uyg'otishdan va amaliy bezak san'at sirlarinidan voqif bo'lishlari va bu san'atga yaqinroq bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Afsuski, ba'zi o'quv yurtlarining intererini badiiy bezashda g'oyat jiddiy nuqsonlar va kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Amaliy bezak san'atining sifatsiz va saviyasiz namunalari, tasviriy san'atning boshqa turlariga bevosita bog'lanmagan

ayrim stendlar, devoriy gazetalar, chaqiriqlar, e'lonlar, portretlar intereraning ko'rinishini buzib turganini kuzatish mumkin.

4-mavzu. Naqqoshlik san'ati. Naqsh va uning turlari (4 soat)

Orta Osiyo san'ati qadimdan mashhurdir. Naqqosh ustaning chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qog'oz betini to'ldirish yoki bo'yash, o'yma yuzini o'yish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalarga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda o'ymakor ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas'uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda tuziladigan bo'lsa, u holda xoh bo'yashda bo'lsin, xoh o'yishda bo'lsin yoki pardoz berishda bo'lsin har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko'ngildagidek go'zal va jozibador chiqmaydi.

O'tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar har bir tomoshabinni hayratga solib kelmoqda. Xattoki chet ellardan tashrif buyurgan sayohatchilar ham mamlakatimizdagi qadimiy yodgorliklarni, badiiy did bilan ishlangan naqshlarini ko'rib lol qolmoqdalar. Buxorodagi Ulug'bek madrasasi, YuNESKO muhofasidagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Kalon minorasi, Samarqanddagi Shohi-Zinda maqbarasi, Go'ri Amir maqbarasi, Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari va boshqalar Sharqning nodir go'zalligi, soddaligi hamda naqsh motivlarining ulug'vorligi bilan kishilarni sehrlab kelmoqda.

Yuzlab, minglab xalq me'morlarining qovargan qo'llari bilan yaratilgan yodgorliklardagi jonli naqshlar xuddi tabiatning go'zallik olamini kuylayotganday tuyuladi va kishilar ruhiyatiga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Chunonchi, Samarqanddagi asrlar davomida musulmon sharqida dong taratgan oliy bilim maskani Ulug'bek madrasasini tomosha qilar ekanmiz, uning ta'lim-tarbiya maqsadida ko'zlab bunyod qilganligini naqqoshlar bezagi orqali sezish oson. Madrasaning bezagidagi bir birini kesib o'tgan behisob chiziqlardan ko'p burchakli va ko'p qirrali yulduzlardan tashkil topgan naqshlar xuddi koinotdagi charaqlab turgan yulduzlarni tarannum aylagandek asrlar osha hikoya qilib turganday tuyuladi. Ana shu bir birini kesib o'tgan behisob chiziqlar, har xil burchakli va qirrali yulduzlardan tashkil topgan geometrik naqshlarni girih deb yuritiladi. Xo'sh, girih nima o'zi? U qanday ma'noni anglatadi?

Girih — forscha chigal, tugun degan ma'noni anglatib, handasiy naqshlar turiga kiruvchi murakkab naqsh demakdir. Geometrik naqsh muayyan taqsimlarga ega bo'ladi. Har bir taqsim o'z tuzilishiga ega. Girih O'rta Osiyoda va Yaqin Sharqda keng tarqalgan naqsh bo'lib, XII-XVI-asrlarda ayniqsa O'rta Osiyoda juda

keng taraqqiy qilgan. Pokiston, Turkiya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. Dunyoda girihni eng ko'p tarqalgan joyi O'rta Osiyodir. O'rta Osiyoda girihlarning juda ko'p turi mavjud. Bu girihlarni arxitektura minoralaridan tortib kitob varag'igacha bezatilganining guvohi bo'lamiz. Albatta biz tarixga nazar tashlar ekanmiz o'sha zamon uchun girihni chizmachilik asboblari, matematik formulalar asosida ishlanishi bu katta ilmiy kashfiyot edi. Bu girihni ishlagan ustalar matematika fanini egallagan kishilar bo'lganlar.

Arxitektura yodgorliklaridagi geometrik naqshlar shunday aniqlikda ishlanganki, kishini lol qoldiradi. Olimlarimiz ana shu girih ishlash sirlarini topish maqsadida ko'p izlanishlar qildilar. Lekin bu jumboqlardan to'la ma'lumotlar ololmadilar. Chunki o'sha vaqtdagi ustalar bu geometrik naqshni qurishni sir deb bilib qog'ozda yoki tushuntirib qoldirmaganlar. Shuning uchun ham otadan-bolaga o'tib unutilib yuborilgan. Ana shu sabablarga ko'ra hozirgi zamonamizda ham ko'pgina ustalarimiz girihni yechimini topishga qiynaladilar.

Sharqning mashhur olimlaridan Abdulvafo al Buzjoniy (940—998) o'zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar yechimi to'g'risida yozib qoldirgan. Bularda girihni ba'zi oson yo'llarini tushuntirib o'tgan. Masalan, uning kitoblaridan birida qurilish va geometrik naqsh yechimi to'g'risida yozilgan. Bu kitob hozir Parijdagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Abdulvafo al Buzjoniy o'zining asarlarida girihni tayyorlash usullarini ko'rsatib o'tsada, bizga girih yechimi to'g'risidagi ma'lumotlar berilmagan⁴.

U o'zining kitobida kvadratni uchga, beshga bo'lishning eng sodda va oson yo'llarini keltiradiki, bu o'sha davr uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik edi. Murakkabligidanmi yoki yasash qonun-qoidalarining asta-sekin unutilib ketganligidanmi, xullas biz uchun noma'lum. XVII-asrga kelib, girih san'ati juda kam ishlatiladigan bo'ldi. Girih chizadigan ustalar nihoyatda kam qolgan. Girih chizish murakkab bo'lgani uchun hamma ustalar chiza olmaganlar. O'sha davrlarda girih naqshini yaxshi bilgan ustalar yetuk ustalar bo'lib hisoblanganlar. Shunday ustalardan biri Usta Shirin Murodov bo'lgan. U yangi girihlarni osonlik bilan chiza olgan hamda o'z o'rnida ustalik bilan qo'llay olgan. U o'z davrida girihni piri hisoblangan, uni girihkor usta deb hisoblaganlar. Shuning uchun girih chiza olmagan ustalarni yetuk usta deyilmagan.

Bunday olimlardan 3.Bositxonovni keltirishimiz mumkin. 3.Bositxonov 300 ga yaqin ishlagan yangi girih naqshlari bilan mamlakatimizda mushhurdir. Hozirda har bir binoni bezashda geometrik naqshlar qo'llab kelmoqdalar. Girih naqshining o'z qonun-qoidalari bor. Shuning uchun ham biz ularga girih naqsh yasash geometriyasini qonun-qoidalarini chuqur o'rgatmog'imiz lozim.

⁴Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. -Т.: Меҳнат, 1991.

Gulli girih — o‘simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topgan. Uning elementiga geometrik va o‘simliksimon naqshlar kiradi.

Ramziy naqshlar esa kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi. Ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g‘uncha, kabutar, tovus va boshqalarning tuzilishini, o‘shish qonun-qoidalari, ko‘rinishini sinchiklab o‘rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash

Madoxil — (arabcha — ostona, kirish, eshik) chapurost takrorlanuvchi islami naqsh turi, u kompozitsiyada chiqish nuqtasi, ya‘ni manbai, ildizi, asosi yoki o‘zagi bo‘lib hisoblanadi. Madoxili ko‘rinishi jihatidan xilma xil bo‘lib, g‘uncha, lola, gul, uch barg va boshqa shakllardan iborat. Ana shu shakllarning orasiga naqqoshlar har xil gullar kiritib o‘ziga xos nom qo‘yganlar. Masalan: madoxili lola — g‘uncha, lola shakliga yaqin qilib ishlangan madoxili naqsh turi; qo‘sh madoxili — lola, g‘uncha, gul va boshqa shakldagi madoxilining biri yuqoriga, biri pastga qaratib chiqilgan nusxasi; madoxili islami — naqshning taqsimini, asosini madoxili shakli egallovchi islami naqsh turi. Madoxili naqshlari arxitekturada, yog‘och, ganch, tosh, mis o‘ymakorligida, naqqoshlikda, kashtado‘zlikda va boshqalarda keng tarqalgan. Madoxili turlari borgan sari ko‘payib bormoqda va zamonaviy binolarning uy-ro‘zg‘or buyumlarini bezashda keng qo‘llanilyapti.

Turunj — arabcha «limon» degan ma‘noni bildiradi. Ruscha medalon, naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. O‘rta Osiyoda o‘ziga xos ko‘rinishga va mazmunga ega bo‘lib, qadimdan ishlatilib kelinadi. Turunj naqshning ko‘rinishi, limon shaklida bo‘lgani uchun uni shunday deb yuritiladi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo‘lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan. Uning hozirda doira, 5-10 raxli yulduz, oval, romb, ellips shakllari bor. Turunj nusxasi 4, 8 yoki 16 ga bo‘linadi.

Naqqoshlar ko‘pincha to‘rtburchakli kompozitsiya chetiga oddiy naqsh, ya‘ni ruta ishlab o‘rtasiga turunj ishlaydilar. Turunj ko‘pincha devor o‘rtasiga, shift markaziga, kashta, gilam markazlariga bajariladi. Usta turunj ulgisini tayyorlashda qog‘ozni 4, 8 yoki 16 ga buklab bir bo‘lagiga nusxa chizadi. Shu naqsh chiziqlarini ignada teshib so‘ngra qog‘oz yoyilsa qolgan bo‘laklariga ham nusxaning takrori hosil bo‘ladi. Tayyorlangan turunj nusxasini kerakli yuzaga tushuriladi.

Anorgul — naqqoshchilikda, kulolchilikda, misgarlik, kashtachilik va shu singari turlarida ishlatiladigan o‘simliksimon naqshdir. Anorgul naqshi qadimdan ishlatilib kelinayotgan naqsh turi bo‘lib, ko‘pincha Farg‘ona naqshlarida ayniqsa ko‘p uchraydi. Bu naqsh turi hayotdagi to‘qchilik va to‘kin-sochinlik, serfarzanblilik ramzi sifatida ifodalangan. Anorgul naqsh kompozitsiyasida anorni ikki xil, ya‘ni naturalistik, bunda tabiatda qanday bo‘lsa shunday tasvirleydilar, gohida

stillashtirilgan naqsh uslubida tasvirlanadi. Anor tasvirlangan bu naqshda anorning ko‘pincha ichki qismini ham ko‘rsatib tasvirleydilar.

O‘simliksimon naqshlari esa tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g‘uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma‘lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan.

Islimiy — o‘simliksimon naqshi amaliy san‘atning deyarli barcha turlarida juda keng tarqalgan. Islimiy klassik naqsh turi bo‘lib, barg, gul, kurtak, tanob va boshqalardan tashkil topgan bir-biriga ulanib takrorlanishdan hosil bo‘ladigan naqsh.

5-mavzu. Naqqoshlik san‘atiga xos yo‘l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini chizish (4 soat)

Boshlang‘ich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish odatda talabalarda bu borada ayrim nazariy va amaliy tushunchalar, ish tajribalari xosil bo‘lganidan so‘ng mustaqil topshiriq sifatida berilishi mumkin. Dastlab talabalar buyum yoki yuza sirtini, uning o‘ziga xos o‘lchamlarini diqqat bilan ko‘zdan kechirib, bo‘lajak naqsh kompozitsiyasining shakl va elementlarini «hayolan» tanlab oladilar. Albatta, bu naqsh elementlari talabalar tomonidan qachonlardir o‘zlashtirib olingan yoki kuzatilgan naqsh bo‘laklaridan iborat bo‘ladi. Bunda talabalarning tasavvurlar, ish tajribalari, fikr yuritishlari qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, shuningdek, xotiralari zahirasida qanchalik ko‘p naqsh elementlari mavjud bo‘lsa, ular ajoyib naqsh kompozitsiyalarini tuzishlari mumkin bo‘ladi.

Tuzilajak naqsh kompozitsiyalari bo‘laklar asosida tuzilib, uning nusxasi maxsus usulda kerakli joylarga ko‘chirilib tushiriladi. Bu usuldan foydalanish uzoq vaqtlar mobaynida naqqoshlar mehnatini ancha yengillashtirib kelmokda. Shu ko‘rsatmalarga muvofiq shakl yasovchi reja-qolip 4\1 nisbatda chizib olinadi.

Ramka chiziqlari yakka, qo‘sh va bir necha qo‘shimcha chiziqlardan iborat bo‘lishi mumkin. Patnis ko‘rinishidagi bu shaklga bofta va gajak elementlari ulanadi. Navbatdagi bosqich yakka yoki qo‘sh bandli tanob yasovchisini topishdir. Tanob shakli mehrob va yurak shaklidan iborat bo‘lishi ham mumkin. Mashqlar davomida chiziqlar harakatining ravonligiga shakl chiziqlarining qiyshiq yoki siniq holatda chizilib qolmasligiga e‘tibor qaratiladi. Yakka band yo‘lidan iborat tanob ayrisi shkufta elementi bilan bog‘lanadi. Endi yuza bo‘shliqlariga gul, novda, barg va boshqa elementlarni bir-biriga bog‘lagan holda joylashtirish rejalashtiriladi. Novda shakllar bo‘yicha xarakatlantirilib chizib boriladi.

Kompozitsiya tarkibidagi novdaning chizilishi gul va boshqa naqsh elementlarining bir-birlari bilan yaxlit, uzviy bog‘lanib ketishini ta‘minlaydi. Naqsh


namunasiga novda, gul va barg elementlarini joylashtirish, ya'ni ulash natijasida kompozitsiya mazmuni tugal yechimini topadi, mavjud naqsh kompozitsiyasi patnis ko'rinishidagi naqshlar turiga xos bo'lganligi sababli «Patnis islimi» deb ataladi.

Kompozitsiya rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo'yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o'zaro mutanosibliги hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida har bir bo'lakka ishlov berilgan holda uning nusxasi kerakli joylarga ko'chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

Naqsh kompozitsiyasi tuzishdan oldin, yasalgan buyumning o'lchamini aniq o'lchab olish buyumni sifatli va yanada jozibador chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyum o'lchamini olishda esa turli asboblardan foydalaniladi. Masalan, turli burchakli va to'g'ri chizg'ichlar, reyshina, transportir, reysfeder, pargor (sirkul) va boshqa bir qator asboblari kerak bo'ladi.

Buyum o'lchami aniq o'lchab olingandan so'ng, buyum uchun qanday naqsh kompozitsiyasi tuzilsa buyum yanada ko'rkamroq, go'zal va jozibador chiqishligini ko'z oldiga keltirgan holda fikr yuritish lozim. Bunda kompozitsiya tuzuvchining dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muhimi uning nozik tabiatliligi va didining yuqori darajadiligiga bog'liq. Demak, bir to'xtamga kelgach xitoy qog'oziga naqsh kompozitsiyasi chiziladi.

Kompozitsiya tuzishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni buyumning qanday materialdan tayyorlanganligini e'tiborga



rasm. 1-gul. «Bodom guli» naqsh namunasini chizish bosqichi.

olish alohida ahamiyatga ega. Yumshoq materialdan olingan bo'lsa yirikroq, qattiq materialdan olingan bo'lsa maydaroq, murakkabroq naqsh kompozitsiyalaridan foydalanish mumkin.

O‘zbek xalq ustalari qadimdan qo‘llab kelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiatni va voqelikning shartli tasviri bo‘lishiga qaramasdan o‘ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning aynan o‘zidan stillashtirilgan tarzda olingan. Odatda o‘simliklar bir tomonga qarab o‘sadi, bu tabiat qonunidir.

Naqqosh ustaning chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qog‘oz betini to‘ldirish yoki o‘yma yuzini o‘yish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalarga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish

tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda o‘ymakor ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas’uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda tuziladigan bo‘lsa, u holda xoh o‘yishda bo‘lsin yoki pardoz berishda bo‘lsin har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko‘ngildagidek go‘zal va jozibador chiqmaydi.

6-mavzu. Badiiy bezak san’atida ishlatiladigan asbob–uskunalar va materiallar (4 soat)

Mashg‘ulotni boshlashdan avval uni yaxshi o‘tkazish uchun auditoriya jihozlangan bo‘lishi zarur. Jihozlar mashg‘ulotni metodik va didaktik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishni ta‘minlaydi va darsning samaradorligini oshiradi. Xona keng derazali bo‘lib, unga quyosh nuri chap tomondan tushishi lozim. Xona doim quruq va toza bo‘lishi, xarorati 18-20 gradusda saqlanishi kerak. O‘qituvchi talabalar ishi ustidan to‘la nazorat qilib turishi va har bir talaba bilan individual ishlay olishi uchun xonada to‘la imkoniyat yaratilishi lozim. Xonada o‘quv qurollari va materiallar, ko‘rgazma materiallar hamda talabalar ishlarini saqlash uchun shkaf yoki tokchalar bo‘lishi zarur.

Talabalar mashg‘ulot paytida asbob-uskunalaridan foydalanishda metodik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerakligi tushuntiriladi va ko‘rsatiladi. Naqqoshlik san'ati asarlarini tahlil qilishda, xalq ustalarining asarlarini, ularning ijodiy faoliyatlaridagi ayrim davrlarni, ustalar ish uslubini qiyoslab, ularning bir-biridan farqini ko‘rsatishda texnik vositalardan foydalanish katta samara beradi. Bunday texnik vositalarga epidaskop, filmskop, kinoproektor va diaproektor, magnitofon, televizor, kompyuter, audio, vidio, proektor va boshqalar kiradi. Naqqoshlik xonasida bu vositalarning bo‘lishi maqsadga muvofikdir.

Texnik vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish talabalarida san'atga katta qiziqish uyg'otadi. Ularda ijodkorlik va faollikni orttiradi. Ma'lum qiyinchiliklarni bartaraf etishda, o'z navbatida mashg'ulotlarning mazmunli olib borilishiga yordam beradi. Shuningdek, ko'rsatmalilik yordamida o'tkazilgan mashg'ulotlar kinofilmlar fikrlash, narsa va xodisalarni bir biriga taqqoslash, ular o'rtasidagi umumiylik yoki tafovutni aniqlash, o'tilgan mavzuni uzoq vaqt esda olib qolish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Naqsh chizish uchun yaxshi sifatli rasm daftari, albom va butun oq «vatman», o'rtacha yumshoqlikdagi oddiy qora qalam, yumshoq oq yoki qora o'chirgich, uchburchakli yoki to'g'ri chizg'ichlar, sirkul, 1 dan 10 gacha sonli har xil mo'yqalam (kist) lar, kerakli bo'yoq turlari: quruq bo'yoq, mineral bo'yoq, moy bo'yoqlar, guash, tempera bo'yoqlari, bo'yoq qorish uchun idishchalar yoki bankachalar, aralashtirish uchun tayoqchalar mavjud bo'lishi lozim.

Qalam (arabcha) — o'rtasiga ingichka, uzun ko'mir, grafit, qo'rg'oshin, quruq bo'yoqdan qilingan qotishma joylangan cho'p shaklidagi yozuv asbob. Qalam asosan yozish, rasm solish hamda chizmachilik uchun ishlatiladi. O'rta Osiyoda hattotlar siyoh bilan yoziladigan qamishlardan foydalanganlar. Chex olimi Y.Graxmut maydalangan grafit va gil aralashmasidan yozuv sterjenlar tayyorlashni taklif qilib, ishlab chiqarishga asos solgan. Yog'och qalamlar ishlash joyi va hususiyatiga qarab grafitli, rangli va boshqalarga bo'linadi, shuningdek ular joyiga qarab ishlatilishi bilan ham ajralib turadi. Grafit qattiq va yumshoqligiga qarab uch turga bo'linadi. Qattiq qatlamlar T, 2T, 3T, H, 2H, 3H; yumshoq qalamlar M, 2M, 3M, 4M yoki B, 2B, 3B; o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlar TM, HB, F harflari bilan belgilanadi.

Qattiq qalamlar qog'ozni tilib yuboradi va o'chirganda iz qoldiradi. Haddan tashqari yumshoq qalam bilan ham naqsh chizish yaramaydi, u bo'yalib ketadi. Qalamni ishga tayyorlashga alohida axamiyat berish kerak. Qalam uchini chiqarishda yog'och qismi 15-20 mm grafit qismi taxminan 5-6 mm ochiladi.

Chiziladigan chiziqlarni barmoqlar to'sib qolmasligi uchun qalamning ochilgan uchidan sal balandroqdan uch barmoq bilan ushlanadi. Qattiq qisib ushlamaslik kerak, bularning hammasini ustoz ko'rsatib tushuntiradi. Chizilgan naqshning markazini aniq belgilash va ramkalar hosil qilishda to'g'ri va uchburchakli chizgichdan, har xil o'lchamdagi aylanalar chizishda va ularni teng bo'laklarga bo'lishda tsirkuldan foydalaniladi. Naqshga buyoq yaxshi mo'yqalamlar bilan surtiladi. Mo'yqalamlarning ishga yaroqlisi quyidagicha tanlab olinadi: uni toza suvga solib silkitiladi, agar mo'yqalamning uchi birikib ingichka holga kelsa, u ishga yaroqli, to'zib tursa, yaroqsizdir. Mo'yqalamlar bo'rsiq, suvsar, olmaxon kabi hayvonlar yungidan tayyorlanadi. Biz bo'rsiq yungidan yasalgan 1 dan 10 gacha raqamli mo'yqalamlardan foydalanishni tavsiya etamiz.

Siyoh mo'yqalam — 1, 2 va 3 raqamli mo'yqalamlar bo'lib, axta yordamida naqsh tushirilgandan so'ng ularni yurgizib chiqish va gullar tortishda ishlatiladi. 4 va 5 raqamli mo'yqalamlar esa band va marg'ulalarni ranglashda qo'llaniladi.

Obi mo'yqalam — 6 va 7 raqamli mo'yqalamlar bo'lib, ular barg, gul va kichik yuzlarni ranglash hamda naqsh kompozitsiyalarini chekkalarini (ramkalarni) yurgizib chikish uchun ishlatiladi.

Mola mo'yqalamlari — 8, 9 va 10 raqamli mo'yqalamlar bo'lib, katta barg, band, gullar va naqshlar tagiga (katta zamin, kichik zaminga) rang berish uchun foydalaniladi.

Naqqoshlikda ishlatiladigan bo'yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo'yoq, guash, akvarel, emulsiya, bo'yoq, mineral bo'yoq, moybo'yoq, tempera bo'yoqlari. Naqqoshlik mashg'ulotlarida eng ko'p qo'llaniladigan bo'yoq guashdir.

Guash kichik idishchalarda yoki alohida bankalarda bo'lib, u suvda yaxshi eriydi. Guashning yana bir qulayligi shundaki, u bilan turli rangdagi qog'ozlar va yog'ochlarni ham bo'yash, bir rangni ikkinchi rang bilan aralashtirib, uchinchi bir rang hosil qilish mumkin.

Xoka tayyorlash: yupqa mato yoki ikki qavat dokaga maydalangan pista ko'mir kukuni, sinka, bo'r yoki belil poroshogi solinadi va xaltacha holida tugiladi. Shy tariqa xoka tayyor bo'ladi.

Axta tayyorlash: yupqa xitoy qog'oz (kalka) naqshlanadigan buyum yuzasiga qo'yilib, o'lchab olinadi va shu yuzaga mos axta tayyorlanadi. Naqshning yarim yoki chorak qismi qog'ozga yumshoq qora qalam bilan chiziladi. Naqsh simmetrik o'qlari bo'yicha ikki, to'rt va undan ortiq bo'laklarga buklanadi. Naqshni yumshoq yostiqla ustiga qo'yib, nusxa ustini igna bilan teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa aniq va ravshan ko'rinishi uchun teshikchalar oralig'i naqsh nusxasining yirik yoki maydaligiga qarab belgilanadi. Nusxa qanchalik mayda bo'lsa, teshikchalar oralig'i shunchalik yaqin bo'lishi kerak. Shundan so'ng qog'oz yoyib yuborilganda butun naqsh (axta), ya'ni nusxa hosil bo'ladi. Tayyorlangan axtalardan bir necha marotaba foydalaniladi, shuning uchun ular ehtiyotlab saqlanadi⁵.

Axta yog'och yuzasiga yoyilib, ustidan xoka urib chiqiladi yoki bosib yurgiziladi. Yuzaga tushirilgan iz o'chib ketmasligi uchun naqsh yo'llari ustidan kichik raqamli mo'yqalam, qora yoki biror to'q rangdagi qalam bilan siyohqalam qilib chiqiladi. Chizilgan va naqshlangan yuzaning eng chetidan qora bo'yoq bilan 35 mm yo'g'onlikda obi tortiladi.

Yog'och yuzasiga tushirilgan naqshlarning izlari bo'yaladi va buyoqlar o'chib va surkalib ketmasligi uchun ustidan 2 yoki 3 marta laklab chiqiladi. Laklarning

⁵Холматов Б.Қ. Наққошлик. -Т.: Иқтисод-Молия, 2007.

rangi toza va tiniq bo'lishi kerak. Laklangan buyumlar 18-22 gradusli, changsiz va quruq joyda saqlanadi.

Tayanch tusunchalar: asbob-uskuna, kompyuter, audio, video, proyektor, albom, mineral bo'yoq, moy bo'yoqlar, guash, tempera bo'yoqlari, ko'mir, grafit, qo'rg'oshin, axta, kompozitsiya, zamin, guash, akvarel, emulsiya, mineral bo'yoq, jilvir qog'oz, bo'r, pista ko'mir, sinka, doka, xitoy qog'ozi, kalka, nina, alif, yelim, shpaklevka, gruntovka xoka.

7-mavzu. Rang qo'llanilishi va kompozitsiyani yakunlash bosqichlari (2 soat)

Ta'lim muassasasidagi badiiy bezash ishlariga qo'yiladigan estetik talablar ortib borayotgan hozirgi kunda ana shu ishlarning asosiy elementlaridan biri bo'lmish shrift qo'llash san'ati yuqori badiiy sifat darajasiga ko'tarilishi lozim.

Biz harflar vositasida o'z fikrimizni va o'zgaralar fikrini uqib olamiz. Bu e'lon, chaqiriq, devoriy gazeta va boshqa ko'rgazmali tashviqot vositalari yordamida amalga oshadi. Bularni bajaradigan yoki unga bevosita rahbarlik qiladigan shaxs shri[^] nazariyasini va yozish malakalarini egallagan bo'lishi kerak Amaliy san'atning bu qayd etilgan turlari har manzilning o'ziga xos mahalliy xususiyatlariga ega bo'lib, shakl va naqsh bo'yoqlarida aks ettiriladi. Bu esa usta-lar orasida o'ziga xos ishlov buyumlari va xilma-xil bezash asboblari mavjudligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda amaliy san'atning kashtachilik, gilam, palos to'qish va zardo'zlik kabi turlari tobora taraqqiy etib bormoqda.

O'zbekiston o'zining rang-barang shoyi, atlas, beqa-sam, xon atlas va boshqa turli buyumlari bilan uzoq asrlardayoq nom chiqarib kelgan. Hozirgi vaqtda badiiy to'qimachilik san'ati Marg'ilon, Farg'ona, Namangan, Sa-marqand va Buxoro shaharlarida juda rivojlangan.

Badiiy to'qimachilik sohasining asosiy shoxobchalaridan bo'lgan gilamchilik san'ati ham keng tarqalgan. Mohirlik bilan tayyorlangan gilamlar, paloslar, sholchalar xalq to'qimachilik san'ati asosida har manzilda turli shakllarda to'qiladi. Qarshi va Koson tumanlarida rang-barang bo'yoq va geometrik shakldagi guldor sholchalar, Samarqand viloyati tumanlarida uzun patlik julqirs shakldagi paloslar, Andijonning Oyim qishlogida "qizil-oyoq" gilamlar to'qiladi. Xiva esa tiqin texnikasi asosida to'qiladigan gilamlari bilan mashhurdir.

Keyingi paytlarda O'zbekistonda kulolchilik ishla-ri anchagina yo'lga qo'yildi. Sopol buyumlarni yasash va unga bo'yoq berishda har bir shahar va tumanning o'ziga xos uslubi mavjud bo'lib, ustalar o'zlariga xos an'analarga egadir. Buxoro va G'ijduvon ustalari ko'proq qizgish-jigar rang bo'yoqlarda, Rishton ustalari

ko'kimtir, moviy-havo rang, Samarqand ustalari yashil-sariq rang tusda, Shahrisabz ustalari qizg'ish bo'yoqdan foydalanadilar.

O'zbekistonning qo'l-hunar san'atida mis buyumla-riga badiiy naqsh o'yish kasbi alohida o'rin tutadi. Asosan bu hunar ko'proq Qo'qon, Qarshi, Buxoro, Shahrisabz, Xiva shaharlarida rivoj topgan Naqqosh miskar ustalar tomo-nidan nozik shakllarda ajoyib ishlangan choy idish, qum-g'on, choynak, barkash, kuldon, patnislar va xilma-xil bu-yumlarni har bir xonadonda uchratish mumkin.

Yeg'ochdan sharq an'anasi asosida xilma-xil badiiy buyumlar ishlaydigan o'zbek yog'ochsozlari orasida alohida uslubga ega bo'lgan ustalar ko'p. Yogoch o'ymakorlik san'ati Xiva, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Toshkentda ko'p-roq rivoj topgan. Uymakor ustalar o'z hunarlarini aso-san eshik, ustun, darcha, tepa tuynuk va shu kabi binokorlik qismlarini yasashda namoyen etib kelganlar. Hozirgi vaqt-da ular o'z san'atlarini aholi, jamoat binolarini beza-tishga baxsh etmoqdalar. Yogoch buyumlar do'konida turli xil buyumlarning (kiyim ilgichlar, shifonerlar, divan, stol-stullar) yangicha shaklda ishlanganiga ko'zingiz tushadi. Bularning ko'rinishi chiroyli, sodda, ishlatishda ancha o'n-g'aylik tug'diradi. Ular yangi yetishib chiqqan ustalarning ijodiy mahsulidir. Bu ishda yorqin bo'yoqlarni tanlagan bo'yoqchilarning ham hissasi katta.

V. KO'CHMA MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Rang qo'llanilishi va kompozitsiyani yakunlash bosqichlari (2 soat)

Ta'lim muassasasidagi badiiy bezash ishlariga qo'yiladigan estetik talablar ortib borayotgan hozirgi kunda ana shu ishlarning asosiy elementlaridan biri bo'lmish shrift qo'llash san'ati yuqori badiiy sifat darajasiga ko'tarilishi lozim.

Biz harflar vositasida o'z fikrimizni va o'zgalar fikrini uqib olamiz. Bu e'lon, chaqiriq, devoriy gazeta va boshqa ko'rgazmali tashviqot vositalari yordamida amalga oshadi. Bularni bajaradigan yoki unga bevosita rahbarlik qiladigan shaxs shri^ nazariyasini va yozish malakalarini egallagan bo'lishi kerak Amaliy san'atning bu qayd etilgan turlari har manzilning o'ziga xos mahalliy xususiyatlariga ega bo'lib, shakl va naqsh bo'yoqlarida aks ettiriladi. Bu esa usta-lar orasida o'ziga xos ishlov buyumlari va xilma-xil bezash asboblari mavjudligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda amaliy san'atning kashtachilik, gilam, palos to'qish va zardo'zlik kabi turlari tobora taraqqiy etib bormoqda.

O'zbekiston o'zining rang-barang shoyi, atlas, beqa-sam, xon atlas va boshqa turli buyumlari bilan uzoq asrlardayoq nom chiqarib kelgan. Hozirgi vaqtda badiiy

to'qimachilik san'ati Marg'ilon, Farg'ona, Namangan, Sa-marqand va Buxoro shaharlarida juda rivojlangan.

2-mavzu. O'zbek amaliy va badiiy bezak san'ati (4 soat)

O'zbek xalqining amaliy me'morchilik san'ati o'ziga xos boy an'analarga ega. Bizning davrimizga qadar yetib kelgan amaliy me'morchilik san'ati asarlari rang-barang va xilma-xildir. Bular kulollik buyumlari, ipakdan, jundan to'qilgan gazlamalar, harxil gilamlar va palos-lar; yog'och va metallardan ishlangan uy-ro'zgor ashyolari, gul chekib o'yilgan marmar tosh buyumlari, badiiy kashta bilan bezalgan so'zanalar, guldor jiyaklar, zarhal kashtalar, turli xil do'ppilar va boshqalardir.

Yogochga naqsh ishlash san'ati taxminan IV asrdan boshlangan. Badiiy jihatdan bezalgan gulli naqshdor o'rta asr yodgorliklari hozirgi davrga qadar saqlanib qolgan. Qadim zamonlardan boshlab madrasalarning to'sini, araqi, ustunlari, boylar yoki jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan joy-lar, amaldorlar qurdirgan mehmonxonalar naqqoshlar tomonidan nafis (nozik) naqshlar bilan bezatib kelingan.

Madrasa devorlari va karniz oraliqlariga ganch ustalari nafis gullarni o'yib ishlashgan.

Naqqoshlik ayniqsa sabr-toqat, mustahkam asab, yuksak quntani talab qiluvchi hunardir. X asrda yashab o'tgan Qobusning nabirasi Kaykovus ham kasb-hunar o'rganish har bir yoshning burchi, deb hisoblagan.

Bola tarbiyasida hunar o'rganishning ta'siri, halol mehnat kabi axloqiy tushunchalar shubhasiz yuksak ma'no kasb etadi. Bu bilan insonlar o'rtasida do'stlik aloqalarini rivojlantirishga, turmush darajasini taraqqiy ettirishga yaxshi dalillar keltiriladi.

Kaykovus o'z zamonasining farzandlari mehnatsiz, ilm-hunarsiz na ilm cho'qqisiga, na ma'rifatga ega bo'lishi mumkin emasligini o'zining hayotiy tajribasi orqali tushuntiradi. U: "Bilimni egallamoq uchun mehnat qilish, badanni dangasalikdan qutqarish foydalidir. Chunki dangasalik, ishyoqmaslik badanning buzilishiga, kasallanishiga sababchi bo'ladi. Agar mehnat qilib badanni o'zingga bo'ysindirmasang, sog'lom va baland martabali bo'la ol-maysan..." - degan edi.

Kasb va hunar yoshlar vaqtining behuda o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Hunar va kasb o'rganish yoshlarni har qanday nojo'ya xatti-harakatlardan xoli qiladi. Hayotda uchragan qiyinchiliklar oqibatida tugilishi mumkin bo'lgan yomon fikrlardan qaytishga o'rgatadi.

Jahonga mashhur bo'lgan buyuk olim va mutafakkirlar Aristotel, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nosir Xisrav, Nizomiy Ganjaviy, Muslihidin Sa'diy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Bedil, Bobur kabilar kishilik madaniyati taraqqiyotining rivoj-ji uchun o'zlarining ilmiy-badiiy ijodlari bilan katta hissa qo'shganlar. Ular jozibador go'zalliklar insonlar qalbiga doimo shodlik baxsh etib, har qanday g'am-gussa, iztiroblarni yenga olishiga ishonganlar. Bobur o'z zamo-nasidagi badiiy naqshli irmoqlar bilan gul soluvchi naq-qoshlar mehnatini yuksak qadrlab, ularni tez-tez o'z huzu-riga chorlab, esdalik sovg'alar taqdim etgan va ular ha-qida: "Mehnatda sinalgan elda aziz", -deb maqol yaratgan.

A.Navoiy esa, naqqoshlar hunaridan zavqlanib, ular-ga el oldida boqiy umr tilagan. Bu olimlar naqsh gulla-rining topilishi va takomillashishiga, o'ymakorlik ish-larining davom etib rivojlanishiga o'z hissalarini qo'sh-ganlar.

VII-VIII asrlardagi hukmdorlarning Varaxsha shahri-dagi saroylarida amaliy san'atning xilma-xilligi jiha-tidan kishini hayron qoldiradigan namunalari saqlan-gan. GX-XI asr boshlarida Urta Osiyo tarixida badiiy madaniyat, ayniqsa arxitektura tez rivojlangan. Arab bosqinchilarining bostirib kirishi tufayli bu davr O'rta Osiyo madaniyatini uch bosqichga bo'lish mumkin, ya'ni:

1. VIII va IX asr o'rtalarida shahar ichkarisida olib borilayotgan qurilish ishlari juda susayib ketdi.
2. IX va X asrning ikkinchi yarmida mamlakat Bagdod xalifaligidan ozod bo'lgandan keyin shahar ichkarisida xarob joylarni qayta tiklash ishlari avj olib ketdi.
3. XI - XII asrlar va XIII asr boshlarida Urta Osiyoda feodal tuzum hukmronligida arxitektura va shahar quri-lishlari yuqori darajaga ko'tarildi.

XVII - XVIII asrlarda ko'plab turar joy binolarini bezashda amaliy san'at asarlari qullanila boshlandi. XIX asrga kelib bezakning hamma turlariga xos qat'iy, aniq kompozitsiyalar ishlab chiqildi.

XIX asrning ikkinchi yarmigacha lojivor sarg'ish, qizil-jo'sha sabzi bo'yoqlar ishlatilib kelindi. XIX asr oxirlarida ochiq rangli bo'yok,lar, masalan, sariq sabzi, shingobi bo'yoqlar topildi. O'zbek naqshlarida bo'yeqlarning tuslari doim bir tekisda: quyuuq, tekis, o'tkir tusli bo'yoqlar ishlatiladi. Masalan, qora tusdan oq tusga, jo'sha tusdan to'q yashil tusga, yashil tusdan sariq tusga o'tiladi.

Naqqoshlik san'ati haqida birorta ham kitob yoki maktab bo'lmagan. Ustalar hunarni ustozlaridan yoki ota-laridan o'rganganlar. Naqsh ustalari shogirdlari yordamida boylarning mehmonxonalari, saroy va madrasalar-ni bezatib tirikchilik o'tkazganlar.

XX asrning 20-yillaridan boshlab O'zbekistonning ko'pgina shaharlarida badiiy san'at ishlarini rivojlantirish maqsadida artellar va kombinatlar ochiladi. Artellarda o'quvchilar uyushmasi tuzilib, har bir uyushmaga bir ikki-tadan ustalar birlashtiriladi. X, unar o'rganuvchilar ish-ning murakkabligiga qarab 3 oydan 6 oygacha shogird bo'lar va shogirdlik vaqtida har oyda oylik va o'rganish uchun material hamda asbob-uskunalar bilan ta'minlanardi. Shogirdlik vaqti tugagandan keyin ular imtihon topshirib, qilgan ishlariga va bilimlariga qarab malaka darajasini olardilar. Toshkentda P.P. Benkov nomidagi Rassomlar tayyorlash maktabida 1952/53 o'quv yilida amaliy san'at bo'limi ochilib, bu yerda birinchi tashkil etilgan o'quv ishlab chiqarish kombinatini bitirib chiqqan ustalar va O'zbekistonda nom chiqargan xalq ustalari dars berishdi. Bular orasida Yoqubjon Raufov, Muhiddin Rahimov, Jalil Hakimov, Mahmud Usmonov, Toir To'xtaxo'jayev va boshqalar bo'lgan. 1949 yilda Ostrovskiy nomli pionerlar saroyida, 1954 yilda Lenin nomli pionerlar saroyida naqqoshlik va ganchkorlik to'garagi ochilib, unda o'quvchilar har ikkala san'at turini zo'r qiziqish bilan o'rganadilar.

Toshkentda badiiy amaliy san'at sohasida kasb-texnika maktabi ochiladi. Maktab qoshida o'ymakorlik, mis-karlik, zargarlik va gilamchilik ustaxonalari tashkil qilinadi.

Hozirgi vaqtda ustalar o'z shogirdlari bilan birgalikda teatr, klub va muzey binolarini naqsh bilan bezab, mehnatlarini elga manzur etmoqdalar. Bundan tashqari, ko'rgazmalar uchun badiiy buyumlarini ishlab o'z mahoratlarini namoyish qilmoqdalar.

Keyingi yillarda xalq san'atiga bagishlangan qator kitoblar nashr etilmoqda. Masalan, o'zbek xalqining atoqli naqsh ustasi Qosimjon Olimjonovning ijodiga bagishlangan "Toshkent naqshi", toshkentlik o'ymakor usta Maqsud Qosimov ijodiga bag'ishlangan "Toshkent o'yma-korligi", xorazmlik usta Abdulla Boltayev ijodiga bag'ishlangan kitoblar shular jumlasidandir. Bunday kitoblar yosh naqqoshlarni tarbiyalashda, o'z hunar va malakalarini yanada takomillashtirishda, zamonaviy ijodiy ishlar yaratishda yordam beradi.

VI. KEYSLAR BANKI

Keys.

Dizaynerlarni dizayn nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug‘lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi xaqida tanishtirib borish;

Milliy natyurmortni tasviriy san‘at o‘qitishning zamonaviy texnologiyasini qo‘llanilishini tushuntirish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun Dizaynerlarga amaliy mashg‘ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

Dizayn turlari va sohalarini rivojlantirish metodikasi dasturi:

1. Tinglovchiga tasvirlanayotgan buyumlarning tekislik va kengliklariga tushayotgan yorug‘liklar va ulardagi tushlarning xususiyatlarini bir-biriga aloqadorligini hisobga olishni tushuntirish;

2. Dizaynerlarni chizmatasvir nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug‘lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi xaqida tanishtirib borish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun Dizaynerlarga amaliy mashg‘ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

Mashg‘ulot paytida:

Tinglovchi va talabalarining asosiy va yuqori amaliy bilimlardan qoniqish hosil qilishlari uchun o‘quv ustaxonasi kerakli yorug‘lik va chizmatasvirida qo‘llaniladigan zarur jihozlar bilan ta‘minlanishi kerak.

Ishlatiladigan ashyolar;

har xil yumshoqlikdagi oddiy grafitli qalamlar, ko‘mir, sous, sagina.
planshet, qog‘oz, o‘chirgich.

chizmatasvir ishlash uchun dastgoh (molbert).

TOIFALASH JADVALI VA KONSEPTUAL JADVALINI - guruhlarga qo‘llash, o‘rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashni ta‘minlaydi. Tizimli fikrlash, ma‘lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

TOIFALASH JADVALI VA KONSEPTUAL JADVAL.

1-guruh

Interer, kompozitsiyasi mavzusida ishlash zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izohlang.

2-guruh

Interer kompozitsiyasi mavzusida ishlash zamonaviy pedagogik texnologiyalarda tasvirlash.

TOIFALASH JADVALI

Perespektiva turlari.		
Chiziqli perespektiva	Fazoviy perespektiva	Perespektivada tasvirni o‘zlashtirish:
Giometrik qurilish uslubida	Tasviriy san’at tur va janr, asarlarida kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo muxiti ta’sirida tus va ranglarni o‘zlashtirishni o‘rganadi.	Ufq chizig‘i, kesishish nuqtasi, kartina tekisligi, ko‘rish nuqtasi, ko‘rish maydoni

KONSEPTUAL JADVAL

Interer, kompozitsiyasi mavzusida ishlash	Intererda, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar	
	Pedagogik vazifa	Amalga oshiriladigan ishlar
Interer, kompozitsiyada to‘g‘ri ko‘rish idrokini rivojlantirish	Intererda rang, shakllar va miqdor, o‘lchamni bilish	Xonadagi ichki ko‘rinishni to‘g‘ri topish, Interer, kompozitsiyasida ishlash noto‘g‘ri joylashgan buyumlarni aniqlash, xonadagi buyumlarni yetmagan elementlarini tasvirlash.

Ko‘rish xotirasi hajmini kengaytirish va uni aniqlashtirish	Xonadagi buyumlarni shakllarni eslab qolish	Stolga 5-6 ta intererni tasviri asosida rasmlar qo‘yiladi, buni talabalar eslab qolishlari kerak, so‘ng rasmlardan biri olib qo‘yiladi talabalar rasmlarni qayta ko‘rib, qaysi rasm yo‘qligini topishlari kerak.
Fazoviy tasavvurlarni shakllantirish	O‘ng, chap, yon, orqa, old, baland, past kabi fazoviy mo‘ljallash olish	Perespektivada chap tomonida qanday predmetlar borlig‘ni ko‘rsatishni taklif etish: xonani derazalari qaysi tomoningda turibdi, eshik, shkaf qaysi tomonida turibdi, stol va stullarni joylanishini tekshiring.
Ko‘rish analizi va sintezini rivojlantirish	Tasvirlashda intererni elementlarini ko‘rib analizi va sintezini rivojlantirish va tasvirlash	Ko‘rsatilgan intererda perespektivani chizilgan loyxa ko‘rsating, - Xonani ichki jixozlanishini ko‘rsating.

Tavsiya qilinayotgan tasvirlar o‘zbek xalq amaliy bezak san’ati bilan mo‘jaz rangtasvir – miniatyura san’atining uyg‘unlashuviga oydinlik kiritadi

VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta’lim tegishli o‘quv moduli bo‘yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tashkil etiladi va uning natijasida tinglovchilar bitiruv ishi dirasida referat yoki kurs ishini tayyorlaydi.

Mustaqil ish talablari har bir tinglovchi o‘zi tanlagan rassom ijodi yoki badiiy asar taqdimotini tayyorlaydi.

Mustaqil ish taqdimoti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

- Sarvaraq;
- annotatsiya;
- mundarija;
- asosiy qism: nazariy tahlil;
- illyustratsiyalar ilovasi;
- xulosa;
- glossariy;
- adabiyotlar ro‘yxati.

Keyslar banki;

Boshqa materiallar (fanni o‘zlashtirishga yordam beruvchi qo‘shimcha materiallar: elektron ta’lim resurslari, ma’ruza matni, glossariy, test, krossvord va boshq.)

Shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonida tinglovchi kasbiy faoliyati natijalarini va talabalar uchun yaratilgan o'quv-metodik resurslarini "Elektron potrfolio" tizimiga kiritib borishi lozim.

Mustaqil ish mavzulari

Kompyuter grafikasi haqida ma'lumot.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasi va uning asosiy vazifalari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining qo'llash imkoniyatlari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasi kursiga qo'yiladigan asosiy talablar.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining texnik vositalari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasida qo'llaniladigan grafik dasturlar haqida ma'lumot.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Windows amaliyot tizimidagi grafik muharrir.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Corel Draw grafik dasturi paketi. Uning grafik va servis imkoniyatlari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Adobe Photoshop grafik dasturi paketi. Uning grafik va servis imkoniyatlari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Auto CAD grafik muharriri.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Grafik muharrirlarda chizma, rasmlarni tahrirlash va printer qurilmasi yordamida chop qilishni o'rganish.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasining turlari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasi qanday fan ?

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasidan foydalanish.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Grafik chiqarish qurilmalari.

Badiiy vositalar tekst modellari va palitrage qo'shimcha effektlar, tasvirlarni yaratish va chiqarish haqida ma'lumot.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Kompyuter grafikasining qanday turlari mavjud?
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Tasvirlar animatsiyasi haqida ma'lumot.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Taqdimotlar va uni yaratish usullari.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Kompyuter grafikasining rivojlanish bosqichlari.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Kompyuter grafikasining fanlar bilan aloqasi.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Kompyuter grafikasining hayotga tatbig'i.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Dizayn san'atida zamonaviy reklamaning o'rni.
Dizayn texnologiyasi, asbob-uskunalar, materiallar va ulardan foydalanish.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Badiiy loyihalashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Belgi va ramziy belgilarning kelib chiqish tarixi, ularning turlari.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

VII. GLOSSARIY

Antropometriya (yunoncha so'z «antropos» - odam, «metron» - o'lchov ma'nosini bildiradi) – antropologiyaning bir bo'limi hisoblanib, odam tanasining tuzilishi, asosiy harakat va holatini, tavsif o'lchamlarini o'rganadi. Antropometriya turli jinsdagi, yoshdagi, etnik jihatdan mansubligi va geografik regioniga qarab odamlar uchun o'rta katta-kichik meyorlarini o'rnatadi. Antropometriya asoslari, mahsulot va binolarni proeksiyalashda, ularning odamlarga loyiq ta'minlash maqsadida va ohir-oqibat qulay ishlatilishida va qulaylik yaratishda keng foydalaniladi.

Badiiy konstruksiya – loyihalsh faoliyatining alohida tarzdagi xilma-xil obektlari bo'lmish sanoat va maishiy yo'nalishdagi mahsulotlar, yirik seriyalarda sanoatlashgan uslubda ishlab chiqarilishi. Badiiy konstruksiya ob'ektlarining xarakterli xususiyati-ularning ishlanmasida injener-konstruktur va texnologlarning qatnashishlari zarurligi. Rassom-konstruktur mahsulot ishlanmasi ustida, texnikaviy estetikaning, nazariy va metodologik bilimlariga tayangan holda ish olib boradi.

Badiiy loyihalash – uni tarkibiy qismiga kiruvchi badiiy konstruksiyaga nisbatan, mahsulotlarni ishlab-chiqarish jarayonida kengroq doirasidir. Uning

ob'ektig, hozirgi paytgacha yig'ilgan metodlar bo'yicha ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlar kiradi.

Badiiy sifat – mahsulotning inter'er vash u kabilar tashqi ko'rinishida, afzalliklari, shakl va elementlar o'lchamlarining o'zaro uyg'unligi, mutanosibligini, ritmik tuzilishi, fakturasini, rang va boshqa kompozitsion xarakteristikalarini aniqlaydi. Badiiy sifat asosiy ko'rsatkichlaridan biri, odam uchun xizmat qiladigan predmet muhitining organik elementi sifatida, barcha xarakteristik shakllarni, mahsulotning asosiy g'oya echimiga bo'ysundirishdir.

Badiiy uslub (stil) – badiiy ijod doirasiga mansub bo'lib, mavjud bo'lgan qator umumiy tomonlarga ega me'morchilikda, san'at asarlarida, dizaynda tarixiy bosqichning u yoki bu davrlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy uslub ko'pincha buyumlarning me'morchilik va badiiy asarlarida kompozitsion qurilishida namoyish etiladi.

Dekor (lotincha «dekor» so'zidan – bezayman, ma'nosini bildiradi) – bezak elementlari va mahsulot bezagini to'plami. Dekorning asosiy ko'rinishlari: ornamentika, tasviriy va arxitektura motivlari, bezakli qoplami. Rivojlangan dekor, dekorativ – amaliy san'at mahsuloti uchun xarakterlidir, ayniqsa o'tmishda, uning shakliga atayin bezatish uchun kiritilgan element (detal)lar ko'rinishida tez-tez chiqib turgan. Dekor xarakteri, bironta ustani buyumlarning go'zallik mohiyatini, davr tasavvurlari orqali aniqlanadi.

Dekorativlik – shakl ta'sirchanligi shartlaridan biri, mahsulot hususiyati, uning shakl va siluet konfiguratsiya hosiyatlari, hamda materialning rangi, faktura va teksturasi bilan bog'liqdir. Ko'pincha dekaorativlikni dekor elementlarining qo'llanilishi, masalan ornamentika bilan bog'lashadi. Lekan bu vaziyatda dekorativlik emas, balki mahsulot dekarativligi deyilsa, to'g'ri aytilgan bo'ladi. Aslida dekorativlik barcha dekorlardan mahrum bo'lgan ko'pgina predmetlarda, masalan: radiopryomnik, avtomobillar, metallning ustki qoplami, kristallar, o'simliklar bargi va boshqa narsalarda mavjuddir.

Mahsulotning dekorativligi, shaklning tartibga solinishi va mantiqiy konstruktivligi, ritmi, rangi, mutanosibligi, faktura vash u kabilarning tashkil etilishiga bog'liqdir.

Dizayn (inglizcha «design» so'zidan – chizma, rasm, loyiha ma'nosini bildiradi).

- 1) badiiy konstruksiyalash;
- 2) mahsus faoliyat sohasi, odamlarning hayotiy shart-sharoitlari uchun atroflicha bajarilgan loyiha va ilmiy-tashkiliy ishlanmasidan iborat.

Disgarmoniya (yunoncha «harmonia» so'zidan – garmoniya, uyg'unlik, «dis» - old qo'shimcha bo'lib, inkor etish ma'nosini anglatadi) – muvofiqlashmaganlik, shaklg barcha va alohida bo'lgan xususiyatlari orasidagi

qarama-qarshilik, masalan: mahsulotning ritmik tuzilmasi bilan uning rang echimi orasidagi ziddiyat. Shaklda disgarmoniyaning paydo bo'lishi, uning badiiy sifatini pasayishiga olib boradi.

Inter'er (fransuzcha «inteieur» so'zidan – ichki ma'nosini bildiradi) – binoning ichki muhitining, funksional – estetik munosabatda, nisbatan yopilgan va tashkil etilganligidir. Inter'er xona to'siq sirlari (devor, ship, pol) va uning barcha jihozlash va bezatish vositalari to'plamidan tashkil topadi.

Kompaktlik (lotincha «compactus» so'zidan – zich, g'uj, yig'ilganlik ma'nosini bildiradi) – shakl elementlarining joylashuvida maksimal zichligi. Kompaktlik darajasidan, mahsulotning quyilganligi aniqlanadi.

Kompleks loyihalash – qator mahsulotlarning loyihalaniishi, odamning ish faoliyatini muayyan jarayonidagi talablarni to'liq ta'minlash; masalan, oshxona uchun jihozlar, maktab uchun mebel va hk. Kompleks loyihalashning maqsadi, odamlar uchun iloji boricha dam olishda, uyda, ishxonalarda qulaylikni, uyg'unlikni va badiiy muhitni yaratishdir.

Kompozitsiya (lotincha «compositio» so'zidan – o'ylab chiqaraman, tuzaman, yarataman ma'nosini anglatadi) – mahsulotning muayyan maqsadga hizmat qiladigan tartibda joylashuvi va ularning muvofiqligi.

Komponovka (lotinyaa «compono» so'zidan – tuzaman ma'nosini anglatadi) – turli elementlarning o'zaro mos qilib joylashtirishning qidiriv jarayoni.

Komfort («copfort» - inglizcha so'z bo'lib) odamning ma'lum bir narsa yoki ba'zi buyumlar to'plamidan oladigan barcha qulayliklar yig'indisidir. Mahsulotlar qulaylikning talabiga to'liq javob bersa, ular huzur-halovatli hisoblanadi. Bunday qulayliklarning yo'qligi esa, ma'lum ish jarayoni muhitida diskomfortni yuzaga keltiradi.

Konstruksiya («constructio» lotincha so'z bo'lib – quraman ma'nosini anglatadi) mahsulot elementlarining o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi. Konstruksiyaning hosiyati, asosan mahsulot elementlarining o'zaro bog'lanishida va o'zaro joylashuvida aniqlanadi.

Konstruksiya tipologiyasi – mahsulot elemetlarining o'zaro bog'liqligini, konstruktiv klassifikatsiya tiplaridagi farqlari.

Konstruksiya klassifikatsiyasining asoslariga:

1) elementlarning bog'lanish tipii (ajralmas, ajraladigan; yig'iladigan va bo'linadigan);

2) elementlarning o'zaro munosabat tipii (turg'un; kinetik);

3) ularning ulanish sxemasi va usuli; (yahlit; karkasli; jildli; to'plamli);

4) ma'lum mahsulotning boshqa buyumlar bilan bog'lanish konstruksiya tipii (avtomnom; bloklanadigan);

5) funksional holatning tipii (statsionar; safarbar; ihcham);

6) konstruksiyaning asosiy va asosiy bo‘lmagan elementlarini o‘zaro munosabat tipii (ochiq; yopiq; yarim ochiq) va h.k..

Mahsulotlarning assortimenti (fransuzcha so‘z bo‘lib «assortiment») – ko‘p mahsulotlarning turlicha modellarining bir muhitda tadbiiq etilishi, jihozlarning bir maqsad yoki turdagi to‘plami ma’nosini anglatadi. Masalan, maishiy yo‘nalishda, turar joyda oshxonani jihozlash uchun mahsulot assortimenti, oshxona uchun idish-tavoqlar assortiment iva boshqalar. Assortimenti, bir vaqtning ichida ishlab chiqarilgan modellargina tashkil etishi mumkin.

Mahsulotlar kompleksi – turli funksional yo‘nalishdagi mahsulotlar to‘plami, odamning muayyan ish jarayonida vositalarning umumiy sistemasini shakllantiradi.

Mahsulotning sifati – sanoat mahsulotlarini o‘lchov qiymati, ularning hususiyatlarini baholash nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, barcha ko‘rsatilayotgan talablarga muvofiq, hamda zamonaviy texnologiyaning yuqori ko‘rsatkichlari bilan ularning ishlab chiqarish texnologiyasi darajasining muvofiqligi.

Mahsulotning sifatini baholashning asosiy aspektlari – bu ularning foydali bo‘lishi, texnik va texnologik mukammalligi, ergonomik talablarga javob berishi, tejankorli bo‘lishi, ishlatishda qulayligi, badiiy sifatining estetik qimmatligidir.

Mahsulotning foydali bo‘lishi – jamiyatning va odamlarning mahsulotni ishlab chiqarishda, hamda iste’mol qilinish qiziqishlari nuqtai nazaridan kelib chiqadigan zarurat darajasi. Mahsulot jamiyatning qiziqishlariga javob bera olishi va jamiyat talabiga muvofiq, uning foydali ekanligi aniqlanadi.

Moda (lotinyaa so‘z bo‘lib, o‘lchov, shakl, uslub ma’nosini anglatadi) – zamonaviy talabga javob bera oladigan va odamlarning aynan shu narsalarga ega bo‘lish intilishiga ko‘ra, sanoat mahsulotlari va boshqa buyumlarning ishlatilishida namoyon bo‘ladi. Odatda, buyumning yuqori sifati bilan ajralib turishi, texnik jihatdan yangiligi yoki boshqa yorqin ifodalaydigan hosiyatlari bilan ajralib turishi ifodalanadi, masalan, ko‘rinishining ajoyibligi, yuqori chidamligi, ihchamligi, qulayligi va hk..

Nufuzli (prestij) iste’mol qilish («presstij» - fransuzcha so‘z «presnige» - qadr-qimmat ma’nosini anglatadi) – bu buyumlarning shunday ishlatilishi-ki, unda iste’molchi, shu orqali o‘zining faravonligini, madaniyatini, odamlarning qaysi tabaqasiga mansub ekanligini namoyish etadi.

Ornamentika (lotincha so‘z «ornamentum») - ziynatlash, zeb berish, bezatish ma’nosini bildiradi) – dekorning xilma-xilligi, buyum, bino, kitoblarni va hk. bezash elementlari yig‘indisining, har xil tabiiy shakllar stilida ishlov berishdir, ayniqsa katta qismi o‘simliklardan tashkil topgan, masalan: barglar, gullar, mevalar va shu kabilardir. Tabiiy timsollardan xoli bo‘lgan ornamentika ham g‘oyat tarqalgan, ya’ni

asosi geometrik naqshlardan iboratdir. Ornamentika turli usullarda qo'llaniladi: naqqoshlik, gravirovka, o'ymakorlik, haykaltaroshlik, kashtachilik, applikatsiya, tikuvchilik va hk.. Ornamentika milliy hislatga egadir. U juda ko'p narsalarda ishlatiladi: kiyim-kechak, turli anjomlarda, mebel, zargarlik buyumlarida, hamda inter'erda va shu kabilarda ishlatiladi.

Predmet muhiti – mahsulotlarning ma'lum shaklda, birgalikda tashkil etilishi.

Sanoat mahsuloti – mahsulotning sanoat usulida ishlab chiqarish, ya'ni mashina texnikasidan foydalanib va shunga binoan, birqancha sondagi o'hshash nushalarning ishlab chiqarilishi tushuniladi.

Sanoat mahsulotlarida shakl tuzilishi – badiiy loyihalashning izlanish jarayonida, mahsulotlar shakl birligi va texnik estetika talablari asosida tarkib topishidir. Sanoat mahsulotlarining shakl tuzilish, asosiy qonuniyatlarga; shakl mahsulotning xarakteristik tarkibiga muvofiqligi; shakl konstruksiya va materiallarga bog'liqligi va boshqalar.

Stayling (inglizcha so'z «styling») – badiiy loyihalash yo'nalishidir. Uning maqsadi xaridorlarni mahsulotlarga jalb qilish. Bu mahsulot tashqi ko'rinishining ta'sirchanligi, ifodaviyligi, shaklning ko'zga tez ko'rinishi va bezatilishi orqali o'ziga jalb etishidir. Stayling uchun mahsulotlarni o'tmishning uyg'onish davri, barokko, klassitsizm va shu kabilar uslubida ishlash xarakterlidir.

Tashqi ko'rinish – bunda, buyumning shakli idrok etish orqali tomosha qilinadi. Shakl elementlari buyumni ishlatish jarayonida idrok etish ham buyumning tashqi ko'rinishiga kiradi. Mahsulotning idrok etilishida, unga estetik baho berilishi, tashqi ko'rinish uchun yagona manbaadir.

Texnik estetika – ilmiy soha bo'lib, predmet muhitini shakllanishi va rivojlanishi, odamlarning ish faoliyati jarayonida predmetli sharoit qonuniyatlarini o'rganadi. Texnik estetikani o'rganish spetsifik predmeti – bu odamlarning biologik va ijtimoiy mavjudod sifatida predmetli muhit bilan o'zaro munosabatidir.

Foydali effekt – mahsulotlarning to'g'ridan-to'g'ri o'z o'rnida ishlatishning natijasidir. Mahsulotning ishlatishda foydali effektning katta-kichikligi, bir qator talablarga amal qiladi: mahsulotning texnik mukammallik darajasi; antropometrik o'lchovlarga munosibligi; ekspluatatsiya muhitida, uning konstruksiya va shaklning o'zaro mosligi va hk.. Shunday qilib, foydali effekt mahsulot sifatini belgilashida asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

Foydalanish qulayligi – mahsulotni o'zining joyida oddiy, havfsiz va shu kabi ishlatilishi tushuniladi. Foydalanish qulayligi, mahsulotni transportirovka qilish, saqlash, yig'ishtirish, ta'mirlash emas, uni faqatgina ishlatish, foydalanish jarayonida qo'llaniladi. Foydalanish qulayligi, mahsulotni qurilishi va shakl orqali

ta'minlanishi, ularning antropometriya, ergonomika talablariga hamda ekspluatatsiyaning konkret sharoitda mutanosibliqidir.

Shakl – mahsulotning muhitga mos qurilmasi, ya'ni nuqta, chiziq, qirra, sirt, burchak, shakl, hajm va boshqalarning aniq o'lchamga ega bo'lishidir.

Sanoat mahsulotlarida shaklning umumiy talablaridan biri barcha elementlarning kompozitsion qonuniyatlar asosida muvofiqligi.

Shaklning ifodaviyligi – mahsulotning badiiy ko'rsatkichlaridan biri, bunda buyumning tashqi ko'rinishi va tuzilishini o'zaro munosibli, maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Bundan tashqari, odamning emotsional kayfiyatiga ta'sir etishi ham muhim ahamiyatga egadir. Mahsulotning bunday ta'sir etish hususiyatlaridan biri – uning dekorativ echimini estetik fahimlanishidir.

Ergonomika - (yunoncha so'z bo'lib, «ergon» - ish, «nomos» - qonun degani) ilmiy-nazariy va ilmiy-eksperimental soha bo'lib, odamning o'zgarib turadigan muhitda, ma'lum ta'sirlanishini talab etuvchi har-xil jihozlar va ish faoliyati muhitida vositalarning odamga ta'sir qiladigan psixofiziologik faktorlarini o'rganadi. Ergonomikaning nazarga oladigan va o'rganuvchi asosiy faktorlariga har xil qo'zg'atuvchilarga odamning munosabati (reaksiyasi), ya'ni optik, tovushli, haroratli va hk.. kiradi. Shu munosabat bilan, ergonomika odamning fiziologiya, psixofiziologiya bilimlariga tayanadi va loyhalanayotgan ob'ektlar shakliga birqancha talablarni aniqlab beradi.

Estetik qimmat – ma'lum mahsulot yoki predmetli muhitining odamlar estetik qarashlariga muvofiqligi. Estetik baholanayotgan ob'ektni, uning barcha hususiyatlarini umumiyli va ular orasidagi har xil bog'lanishlarning paydo bo'lishi, birinchi tomondan odam, hamda ikkinchi tomondan ijtimoiy muhitini xarakterlaydi.

Umuman olganda, badiiy sifat odatda, mahsulotning estetik ahamiyati shartlaridan biri bo'lib hizmat qiladi.

IX. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mipziyoyev SH.M. Byyuk kelajagimizni mapd va olijanob xalqimiz bilan bipga qypamiz. – T.: O'zbekictan, 2017. – 488 b.
2. Mipziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qatiy taptib-intizom va shaxciy javobgaplik – hap bip pahbap faoliyatining kyndalik qoidaci bo'lishi kepak. – T.: O'zbekictan, 2017. – 104 b.
3. Mipziyoyev SH.M. Epkin va fapovon, demokpatik O'zbekictan davlatini bipgalikda bappo etamiz. – T.: O'zbekictan, 2016. – 56 b.
4. “Ta'lim to'g'picida”gi O'zbekictan Pecpyblikacining qonyni. Qonyn hyjvatlapi ma'lymotlapi milliy bazaci, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-con.
5. O'zbekictan Pecpyblikaci Ppezidentining 2017 yil 16 avgyctdagi “O'zbekictan Badiiy akademiyci faoliyatini yanada takomillashtipish va pivojlantipish chopatadbiplapi to'g'picida”gi PQ-3219-con qapopi. – T.: O'zbekictan Pecpyblikaci qonyn hyjvatlapi to'plami, 2017 yil 28 avgyct, 34-con, 876-modda.
6. O'zbekictan Pecpyblikaci Ppezidentining 2018 yil 25 yanvabdagi “Umymiy o'pta, o'pta maxcyc va kacb-hynap ta'limi tizimini tybdan takomillashtipish chopatadbiplapi to'g'picida”gi PF-5313–con Fapmoni. – T.: O'zbekictan Pecpyblikaci qonyn hyjvatlapi ma'lymotlapi milliy bazaci, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-con.
7. O'zbekictan Pecpyblikaci Ppezidentining 2020 yil 21 appeldagi «Tacvipy va amaliy can'at cohaci camapadoplugini yanada oshipishga doip chopatadbiplapi to'g'picida»gi PQ-4688-con qapopi. – T.: Qonyn hyjvatlapi ma'lymotlapi milliy bazaci, 22.04.2020 y., 07/20/4688/0475-con.
8. «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-komunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 4-5-son, 98-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 28-29-son, 262-modda).
9. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.
10. Abdyqodipov A.A, Papdayev A.X. Ta'lim japayonini texnologiyalashtipish nazapiyaci va metodologiyaci. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 104 b.
11. Abdyllyayev N.A. Can'at tapixi. I tom. –T.: O'qityvchi, 1987. – 352 b.
12. Abdyllyayev N.A. Can'at tapixi. II tom. – T.: Can'at, 2001. – 192 b.
13. Akilova K.B. Napodnoye dekopativno-ppikladnoye ickycctvo Uzbekictana XX veka [ppoblemleni pazvitiya]: Avtopefepat dicceptatsii doktopa ickycctvovedeniY. NII ickycctvoznaniY. – T.: 2002. – 57 b.
14. Amipgazin K.J., Udalov C.P. Fopmipovaniye kompetentnoctey v ppotsecce obycheniya dekopativno-ppikladnomy ickycctvy // Omckiy naychniy vectnik. 2012.

№2 (106). – C.223-225.

15. Baymetov B., Alimova G. Maxsus rasm, o'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.

16. Bulatov S.S., Gulyamov K.M. Amaliy san'at. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – 542 b.

17. Gulyamov K.M., Mirsanov U.M., Ikromov M.H. Vektor grafikasi asoslari. – Toshkent, O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2021. – 160 b.

18. Gulyamov K.M., Mirsanov U.M., Djurayev D.D. Rastr grafikasi asoslari. – Toshkent, O'zR FA "Xalq nashriyoti", 2022. – 160 b.

19. Gulyamov K.M. Improving System of Future Applied Art Teachers Training based on Competence Approach // Eastern European Scientific Journal jypnali. – Gepmaniya, 2018. – № 6. – P. 83-88.

20. Gulyamov K.M. Modern educational technologies for the formation of professional competence of future applied art teachers // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – India, Vol. 10, July 2020. – P. 678-685.

21. Qodirxo'jayev P. Badiiy bezak san'ati. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.

22. Yo'ldoshev H., Bulatov S. Ustoz va shogird odobi. – T.: Ozbekiston, 2005. – 240 b.

23. Bylatov C.C. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – T.: Mehnat, 1991. – 384 b.

24. Bylatov C.C., Gylyamov K.M. Amaliy san'at Elektpon daplik. №DGU04551 raqamli gyvohnoma. 21.04.2017.

25. Bositxonov Z. Xandasiy naqsh (girix)larning yechimlari. – T.: Ochiq jamiyati Instituti Ko'mak Jamg'armasining O'zbek Vakolatnomasi, 2002. – 88 b.

26. G'oziyev V., Jabbopov U. Faoliyat va xylq atvop mativatsiyaci. – T.: 2003.

27. G'oziyev E. Psixologiya: (Yosh davplapi psixologiyaci): Ped.inctitytlapi va ynivepcitetlapi ychyn o'qyv qo'llanma. – T.: O'qityvchi, 1994. – 224 b.

28. Gylyamov K.M. Dekopativno-ppikladnoye ickycctva Uzbekictana: glybokiye tpaditsii i pazvitiye yzbekckoy shkoli // Naychniy fopym: Filologiya, ickycctvovedeniye i kyltypologiya: sb. ct. po matepialam XIX mejdynap. naych.-ppakt. konf. – № 8(19). – M.: Izd. «MSNO», 2018. –C. 29-34.

29. Gylyamov K.M. Kacb-hynap kollejlapi xalq amaliy san'atini o'qitish metodikaci (naqqoshlik san'ati micolida). Pedagogika fanlapi nomzodi dicceptatsiyaci. – T.: TDPU. 2012. – 140 b.

30. Gylyamov K.M. Komponenti pprofessionalnoy kompetentnosti bydyshego ychitelya ppikladnogo ickycctva // International scientific journal «Global science and innovations 2020: Central asia» Nur-sultan, Kazakhstan, feb-march 2020, – C.113-117.

31. Gylyamov K.M. Kompetensiyaviy yondashyv acocida bo'lajak amaliy san'at

- o'qityvchilapini kacbiiy faoliyatga tayyoplash tizimini takomillashtipish. MonogpafiY. – T.: TO'YTEPA PRINT, 2020. – 156 b.
32. Gylyamov K.M. Kompetensiyaviy yondashyv acocida bo'lajak amaliy can'at o'qityvchilapini kacbiiy faoliyatga tayyoplash tizimini takomillashtipish // Innovations and modern pedagogical technologies in the education system: materials of the X international scientific conference on February 20–21, 2020. – Prague: Vědecko vydavatelské centrum «Sociosféra-CZ», 2020. – P.54-57.
33. Gylyamov K.M. Pedagogicheckiye ocnovi vnedpeniya innovatsionnix texnologiy v ppepodavaniye napodnogo dekopativno-ppikladnogo ickycctva Uzbekictana // I International scientific specialized conference «International scientific review of the problems of pedagogy and psychology». – Boston. USA, 2018. – C. 20-23.
34. Gylyamov K.M., Tyxtamatov X.P. Amaliy can'at. Elektpon o'qyv qo'llanma. №DGU 03070. 26.02.2015.
35. Gulyamov K.M. Primeneniye sovremennix trebovaniy v prepodavanii rospisi v professionalnom kolledje // Molodoy uchyoniyy. – Chita, 2011. – № 6 (29), Tom II, – B. 144–145.
36. Djypayev P.H. Ta'limda intepfaol texnologiyalap. – T.:2010. – 87b.
37. Ishmyxammedov P., Abdyqodipov A., Papdayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalap (ta'lim myaccacalapi pedagog-o'qityvchilapi ychyn amaliy tavciyalap). – T.: Icte'dod, 2008. – 180 b
38. Karpova S.V. Reklamnoye delo. – M.: Finansi i statistika, 2006.
39. Karxu A.A. Shrift Obyom-prostranstvo. – M.: Panorama. 1990. – 32s.
40. Kurushin V.D. Dizayn i reklama. – M.: DMK Press, 2006.
41. Qocimov Q. Naqqoshlik. – T.: O'qityvchi, 1990. – 160 b.
42. Lusiy S.A. Izuchayem Photoshop. – SPb.: Piter, 2004. – 441 s.
43. Mironov D.F. Corel DRAW 12. – SPb.: Piter, 2004. – 442 s.
44. Nabiyev M. Rangshunoslik.-Toshkent, O'qituvchi, 1996.
45. Nozilov D.A. O'rta Osiyo dizayni tarixidan. -T.: O'zbekiston, 1998.
46. Petrov M.N., Molchanov V.P. Kompyuternaya grafika. – SPb.: Piter, 2003.
47. Rahmonov I., Ashirboyev A. Geometrik chizmachilik shriftlar. – T.: «Noshir» nashriyoti, 2009.
48. Rixsiboyev T. «Kompyuter grafikasi», – T.: “O'zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg'armasi” nashriyoti, 2006.
49. Cayidaxmedov N.C., Indiaminov N.N. Pedagogik mahopat va pedagogik texnologiy. Fan va texnologiya, – T.: 2014. – 336 b.
50. Sotiboldiyev Z.SH. Dizayn asoslari. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.
51. O'zbek tilining izohli lyg'ati. – T.: O'zbekicton milliy ensiklopediyaci. Davlat ilmiy nashpiyoti, 2006. – 690 b.

52. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2008. T.8. – 704 b.
53. Faxpetdinova D.A. Dekopativno-ppikladnoye ickycctvo Uzbekictana. – T.: Izdatelectva litepatypi i ickycctova im.Gafypa Gylyama, 1972. – 64c.
54. Xvopoctov A.C. Cictema ppofeccionalnoy podgotovki ctydentov xydojectvenno-gpaficheckix fakyltetov k ppoyektnoy deyatelnocti na baze kompyutepnix texnologiy: dlya nappavleniya podgotovki “Ickycctvo intepepa” i “Dizayn cpedi”. Dicceptatsiya na coickaniye ychenoy ctepeni doktopa pedagogicheckix nayk. – M.: 2013. – 483 c.
55. Xolmyanskiy L.M., Shchipanov A.S. Dizayn. – M.: Prosvesheniye, 1985. O‘zbekcha tarjima. O‘qituvchi, 1991.
56. Xoshimov O.O., Tulyaganov M.M. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – 104 b.
57. Hacanov P. Amaliy bezak can’ati mashg‘yotlapi metodikaci. – T.: O‘zPFITI, 2003. – 72 b.
58. Hakimov A.A. Covpemennoye dekopativnoye ickycctvo pecpyblik Cpedney Azii. – T.: Fan, 1992. – 190 b. il.
59. Yuldashev U.Y. Informatika. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 104 b.

Internet saytlar:

60. www.artacademu.spd.ru
61. www.edu.uz.
62. www.lex.uz – O‘zbekiston Pecpyblikaci Qonyn hyjjatlapi ma’lymotlapi milliy bazaci.
63. www.pedagog.uz.

www.Ziyonet.uz.